

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**


QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

**Kasb ta'limi fakulteti 5 140901-Kasb ta'limi (iqtisodiyot) bakalavr
ta'lim yo'nalishi talabasi Pardayeva Munisaning**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: «Korxonalarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning
iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari» mavzusini bahs-
munozara metodlari asosida o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish**

Rahbar:



D.Q. Abdiyeva

Maslahatchi:



D.Q. Abdiyeva

Ish bajaruvchi:



M. Pardayeva

«Himoyaga ruxsat etildi»

«KT va P» kafedrası

mudiri

dots. Z.L. Botirov

«22» 06 2012 y.

«Himoya uchun DAK ga yuborildi»

«Kasb ta'limi» fakulteti

dekani

dots. H.A. Ravshanov

«25» 06 2012 y.

QARSHI-2012 y.

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Kasb ta'limi
Kasb ta'limi (iqtisodiyot)

fakulteti
ta'lim yo'nalishi

«TASDIQLAYMAN»

KT 80 P kaf.mudiri

doft. L. Botirov
(imzo, f.i.sh)

«18» 17 2011 y

Bitiruv malakaviy ishi uchun

TOPSHIRIQ

Talaba Pardayeva Nuriza ga

1. Malakaviy ish mavzusi «Korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari» mavzusini barcha munosir metodlari asosida o'qitish uslubiyatini ishlab chiqish

institutning № 555/P buyrug'i bilan 18.XI.2011 yilda da tasdiqlangan.

2. Malakaviy ishini topshirish muddati 20.06.2012 y

3. Malakaviy ish uchun ma'lumot Kasb-hunar kollejlari o'quv me'yoriy hujjatlari, o'quv adabiyotlari, iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlari, Bld ni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va internet yangiliklari

4. Hisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxati) 1. Iqtis. 1. Fan va madaniyatning tarixi 2. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalari, o'qitishning umumiy masalalari, 3. Ijtimoiy-iqtisodiy masalalar majmuasi, 4. Nazariy dars o'tish metodikasi 5. Amaliy mashg'ulotlarni o'qitish metodikasi. Xulosa va takliflar.

5. Chizmalar ro'yxati (bajarilishi shart bo'lgan chizma va grafiklar) 1. Yangi pedagogik texnologiyalar 2. Lamona uy texnika soxitalari 3. Barcha shahar, "Davlat Oshlari" xususiy sado korxonasi toza aykanmar holatining tahlili 4. Muomila xarajatlarini rqa ning bajarilishi tahlili 5. Kalpi daromad hajmi bo'yicha rejani bajarilishning tahlili, 6. Iqtisod unumdorligining bajarilishi tahlili 6. Texnologik xaritalar 7. Nazariy va amaliy ta'lim berish texnologiyasining modellari.

6. Malakaviy ish bo'yicha maslahatchilar Yulfo D. Abdiyeva

7. Malakaviy ishini bajarilishi bo'yicha kalendar grafik

[illegible]

Malakaviy ish rahbari Abdusalam Abduraxman D.

Topshiriq olingan kun 18.11.2011-yil

Talaba Pardayeva Munisa Kojamurod qiri. Tlobo

Kirish

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakillantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohatlar bugungi kunda o'zining natijalarini va ko'rinishlarini namoyon qilmoqda.

Iqtisodiyotni rivojlanishi uchun talab qilinuvchi va zifalarning amalga oshirilishida korxonalarga katta rol ajratilib, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo'g'ini bo'lishi bilan birga mahsulot ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatishi tufayli iste'molchilarning talablari ham qondiriladi. Korxona-ijtimoiy ishlab chiqarishning bosh bo'g'ini bo'lib, unda iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy masalalari hal etiladi.

Korxona tizimi-maxsulotlar yaratish va xizmat ko'rsatish muayyan texnologik jarayonlar, mehnat qurollari, materiallar, odamlarning bilimi va ko'nikmalari ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperasiyalashga asoslangan holda mustaqil ish amalga oshiradigan tizimdir. Korxona ish o'rinlarini beradi, ish haqi to'laydi, soliqlarni to'lash yo'li bilan davlat ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda qatnashadi. Korxona o'z faoliyatini o'zi boshqaradi ishlab chiqarilgan maxsulotni olingan sof foydani soliq va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng qolgan qismini o'zi tasarruf etadi. Iqtisodiyotning notekis rivojlanishi ishlab chiqarish xajmining va maxsulot sotishning barqaror emasligi inqirozli vaziyat ko'rinishida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov Vazirlar Maxkamasining 2011 yil yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim istivor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida ta'kidlab o'tganlaridek hozirgi paytda banklarga berilgan 164 ta bankrot korxonadan 156 tasi ishlab chiqarish faoliyati to'liq tiklandi, 110 ta korxona yangi investorlarga sotildi. Bunday korxonalarni texnik qayta jihozlash va modernizasiya qilish ishlariga tijorat banklari tomonidan 215 milliard so'm miqdorda investisiya kiritildi, natijada 22 mingdan ziyod ish o'rnini yaratildi.

Prezidentimiz hisobot yilida ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida to'xtalib, umumiy o'rta ta'limdan boshlab o'rta maxsus, kasb-

hunar va oliy ta'limgacha bo'lgan bo'g'inlarda chuqur bilim va puxta kasb-hunar tayyorgarligiga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonni o'z ichiga olgan yaxlit uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish ishlarini izchil davom ettirilganini ta'kidladi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashda alohida e'tibor qaratildi. Kollejlar va korxonalar o'rtasida bitiruvchilarning ishlab-chiqarish amaliyotini o'tash va kelajakda mazkur korxonalarda ishga qatnashishi bo'yicha shartnoma tuzishga qo'yildi. Mazkur kelishuvlar asosida 390 mingdan ortiq bitiruvchi ish bilan taminladi va yo'lga qo'yildi.

Bitiruv malakaviy ishda “Korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari“ mavzusini zamonaviy o'qitish metodikasidan foydalanilgan holda ayni “Bahs munozara” usulida foydalanib dars ishlanmalarini ishlab chiqilgan.

“Bahs munozara “ usuli asosida dars olib borilsa talabalarda erkin fikrlash, bahslarda ishtirok etish, o'zini erkin tutishi, muloqoti shakllanadi. Malakali kadrlar tayyorlash uchun o'qitish faoliyati oqilona uyushtirilishi ta'limni maqsadi va mazmuni puxta bo'lishi ta'lim va usullari texnik vositalarini oqilona ishlata bilishi o'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnika bazasi yaratilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birgalikda ta'lim oluvchilar yangi pedagogik texnologiyalar yordamida dars o'tishni tashkillashtirish taqozo etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samardorligini oshirish yo'llarini o'rganish va ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqarishdan iboratdir. Shu bilan birga kasb-hunar kollejlarida nazariy va amaliy dars ishlanmalarini ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti bo'lib, Qarshi shahar “Davlat Ochilov” xususiy korxonasi faoliyat, shu bilan birga kasb-hunar kollejlarida mavzu bo'yicha yangi pedagogik texnologiyalar yordamida “Baxs munozara” usuli asosida darsni tashkil qilish.

Bitiruv malakaviy ishimda kirish, fan va mavzuni tavsifi, o'qitish metodikasini umumiy masalalari, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar majmuasi, mavzu bo'yicha dars

ishlanmalari ishlab chiqish, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo'lib jami 98 betni tashkil etadi.

1. Fan va mavzuning tavsfi

1.1 “Korxona iqtisodiyoti” fanining kasb-hunar kollejlarida tutgan o'rni va vazifalari

Korxonada turli yoshdagi va jinsdagi, millatdagi irqdagi va irqdagi, malakadagi va saviyadagi, dunyoqarashdagi va maqsaddagi insonlar mehnat qiladilar. Ular faqat “ter to'kib ishlab non-nasiba olish uchun emas”, balki inson sifatidagi ezgu niyatlarini, bilim va ko'nikmalarini sevimli ishlarida, korxonalarida sarflash, yaratuvchilik bilan mashg'ul bo'lish va ko'zlagan natijalariga qarab, ham ma'naviy qanoatlantirish uchun o'zligini ifodalash uchun ham mehnat qiladilar.

Korxona iqtisodiyoti fan sifatida korxonalarga ob'ektiv iqtisodiy qonuniyatlar ta'sirini, ularning namoyon bo'lish shakllarini o'rganadi. Korxona iqtisodiyoti umumiy iqtisodiy qonunlarga bog'liq ravishda ularni muayyan holatlar uchun tadbqiq etadi, chunki, korxonalarga xos xususiyatlarini belgilaydi, bu qonunlarning xo'jalik yuritish faoliyatida amalda oshishini yo'lga soladi.

1.2 “Korxona iqtisodiyoti” fanning maqsadi, fanlar aro bog'lanishi mavzuning dolzarbligi va uning o'qish jarayonidagi amalga oshirish yo'llari

“Korxona iqtisodiyoti” fani O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida fan sifatida tavsiya etilib, quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi.

1 bo'lim -Korxona tadbirkorlik masalasi ko'rilib, undagi korxonaning iqtisodiy asoslari, tadbirkorlik turlari va tashkillari, korxonada ishlab chiqarish va tovar ayriboshlash, korxonada umumiy masala va qoidalar ko'rib chiqiladi.

2 bo'lim – Korxona resurslari haqida tushuncha berilib, unda korxonalarning asosiy fondlari va aylanma vositalar va korxona moliyasi haqida kadrlar va mehnat

motivatsiyasi, korxonani boshqarish, ishlab chiqarish jarayoni boshqarish mexanizmi asosi ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish va loyixalash, ichki ishlab chiqarish iqtisodiy munosabatlari, sanatsiya korxonaning bankrot bo'lishi haqida tushunchalar berilgan.

Fan bo'lajak kichik mutaxassirlarga yuqorida ko'rsatilgan mavzular haqida tushunchalar berilgan. Fan kichik mutaxassirlarga yuqorida ko'rsatilgan mavzular haqida umumiy tushuncha berib o'tadi.

“Korxona iqtisodiyoti” fani ham boshqa fanlar kabi fanlararo bog'liqlikka ega. Umumta'lim va gumanitar fanlar bilan bog'liq holda olib borilib, shuningdek qator iqtisodiy fanlar bilan mehnat iqtisodiyoti, iqtisodiyot nazariyasi tadbirkorlik va kichik biznes marketing, buxgalteriya hisobi kabi fanlar bilan bog'liq.

1.3. Kasb-hunar kollejlarining maqsad va vazifalari

Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan 1997 yil 29-avgustda “Ta'lim to'g'risida” gi qonun holati miqyosi, qamrovi va maqsadlari bo'yicha noyob “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi ta'lim sohasida muhim islohotlarning yangi bosqichlarini boshlab berdi. Mamlakatimizda ta'lim taraqqiyotining va shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik hamda madaniy ehtiyojlarini ta'minlaydigan ustuvor sohasi sifatida qonun belgilab qo'yildi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning hayotda tadbqiq etish davomida uzluksiz xususiyat kasb etgan ta'lim tizimining nafaqat shakli va mohiyati tubdan o'zgartirildi. Ushbu tizim maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oliy o'quv yurti, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni o'z ichiga oladi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi esa mazkur uzluksiz ta'lim tizimining mutlaqo muhim va yangi bo'g'inidir.

Mamlakatimizning raqobatbardosh maxsulot ishlab chiqarishda yo'naltirilgan korxonalariga o'rta maxsus ta'lim olgan yoshlar muayyan kasb-hunarni maxsus ta'lim olgan yoshlar muayyan kasb-hunarni puxta egallab, ishlab chiqarish, jarayonini yaxshi

bilgan xolda tayyor mutaxassis sifatida kelmoqda. Yigit-qizlarimiz kasb-hunar kollejlariida umumta'lim fanlari bilan bir qatorda mehnat bozorida talab katta bo'lgan bir nechta kasb-hunar egallash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 1396 ta kasb-hunar kollej va 141 ta akademik lisey faoliyat ko'rsatmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bunday o'quv yurtlari bugun mamlakatimizning eng chekka tumanlarida ham bor. Ular uchun go'zal va zamonaviy binolar barpo etilgan. O'quv-ishlab chiqarish xonalar va laboratoriyalar eng so'nggi texnik uskunalar zamonaviy apparaturalar bilan jihozlangan. Bugungi mazkur o'quv yurtlarida qariyb 1,7 million nafardan ortiq o'g'il-qiz bilim olmoqda. Yoshlar o'zi tanlagan mutaxassisliklari yuzasidan puxta va uzluksiz ta'lim-tarbiya olishlari natijasida o'ziga kerakli bo'lgan malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi, mehnatga qiziqishi ortadi, ularda ishtiyoq uyg'onadi, ishchilarga nisbatan hurmat tuyg'usi ortadi. Kasb-hunar kollejlari kelajakda o'zining qadr qimmatini anglaydigan irodasi baquvvat, iymoni butun, xayotda aniq maqsad sari intiluvchi yosh avlodni tarbiyalashda asosiy rol o'ynaydi.

Kasb-hunar kollejlarni tugatib chiqqan yoshlar kelajakda o'zining qadr-qimmatini anglab, vataniga, xalqiga chin dildan xizmat qiladigan va namunali, yaxshi mutaxassilar bo'lib etishadilar.

Kasb-hunar kollejlarni tugatgan yoshlarimizga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallagan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqi beradi.

2. O'qitish metodikasining umumiy masalalari

2.1. Didaktikaning mohiyati va asosiy tamoyillari

Didaktika-ta'lim nazariyasi tushunchasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi ta'lim-tarbiya jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan tamoyillar, ta'lim usullari va ta'lim-tarbiya shakllari, pedagogikadagi asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Demak, didaktika yosh avlodni “nimaga o'qitish?”, “nimani o'qitish?” va “qanday o'qitish?” kabi savollarga javob beradi. Didaktika o'qitishning umumiy qonun va qonuniyatlarini aniqlab berishi va u bilan birga, har bir o'quv fanining o'qitish usullari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Didaktikaning asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya jarayonida ob'ektiv hukm suruvchi qonuniyatlari aniqlab ular asosida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishning qonun va qoidalari hamda tamoyillarini tuzi berishdan iborat. Ko'p yillik izlanishlar va baxslar natijasida ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi dars o'tishning umumiy tamoyillar jarayoni tizimi ishlab chiqilgan:

1. Onglililik va faollik – bilimni talabalar tomonidan ongli ravishda faol qatnashib egallashlik ;
2. Ko'rgazmalilik - “yuz marotaba eshitgandan bir marotaba ko'rgan yaxshi”, tamoyilidan kelib chiqib, bilim berishda turli ko'rgazmali qurollardan samarali va unumli foydalana bilish;
3. Tizimlilik va muntazamlilik – bilimni ma'lum bir tizimga va uzluksiz ravishda berib borish;
4. Mustahkamlik – bilimni tushunarli tilda qayta-qayta takrorlash y o'li bilan berishdan iborat;
5. Tushunarlilik – bilimni hammaga tushunarli qilib berish;
6. Ilmiylik – bilimni bolalarda avvaldan mavjud va mukammal bilimlarga asoslab va ularda kelib chiqqan holda berishdan iborat;
7. Nazariya va amaliyot birligi – bilim berishda nazariy bilimlarning amaliyotda ishlanishini, ya'ni uni xayot bilan, amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatib berish;

Bu tamoyillar pedagogik jamoatchilik tomonidan umumiy tamoyillar deb qabul qilingan. Onglililik va faollik tamoyili. Bu tamoyil asosida ilm tomonidan aniqlangan insonning haqiqiy bilim olishi uchun, u bu bilimlarni chuqur anglab etganda ilmiy

quvvatini intensiv ishlatishi natijasida etishishi mumkin, degan qonuniyat yotadi. Bilimlarni anglagandik holati quyidagi omillardan kelib chiqadi: o'qitishning sababi; talabaning bilish faolligi darajasi; o'quvchi va talabalarning bilish faolligini boshqarilishi va boshqa omillar. Talabaning shaxsiy bilish faolligini bilib olishda muhim. Ko'rgazmalilik tamoyili. Bu eng hammaga ma'lum va tushunarli bo'ladigan tamoyillardan biri bo'lib, u qadimiy zamonlardan qo'llanilib kelingan. Buning asosida quyidagi qonuniyatlar yotadi: birinchidan, ko'rish va eshitish orqali olingan axborotlar miyaga turishga ta'sir etib turlicha xotirada saqlanadi. O'qitish jarayonida ko'rgan narsa eshitganga nisbatan bir necha barobar tez o'zlashtirib uzoq muddatga esda saqlanib qoladi.

Bilim berish va bu bilimlarni talabalar ko'nikmasiga aylantirish jarayonida, barcha tushuncha va mavhumliklar ular tafakuriga faqat asos, dalil, timsol va qiyofalar orqali tez etib boradi. Ya'ni texnik vositalar – o'quv televidiniyasi, video kompyuter va boshqalardan foydalanilayotganda, avval o'qituvchining o'zi uni yaxshi o'zlashtirib olishi lozim. Tizimlilik va muntazamlilik tamoyili. Bu tamoyil quyidagi qonuniyatlarga suyanadi.

- inson faqat dunyoni o'z tafakkuriga aniq aks ettirgandagina haqiqiy va faol bilimlarga ega bo'ladi;
- kishi tafakkurida bilimlar tizimning shakllantirishning asosiy maqsadga yo'naltirilgan rasmiy ta'limning tashkil qilishi;
- bilim berish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi tufayli bilim samarali bu bosqichlar orasida masofasi jihatidan haddan oshib ketsa, bilim berish samara bermaydi.

Mustaqillik tamoyili. Bu tamoyilda barcha ilg'or o'qituvchilar va pedagoglar ko'p yillik izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Unda nazariy bilimlar bilan elementar bilimlar birlashib mustahkamlanadi. Bilimlarni mustahkam egallash jarayoni juda murakkab bo'lib, keyingidagi tadqiqotlarda o'zgarishlar kiritdi.

Tushunarlilik tamoyili. Bu tamoyil bir tomomndan didaktikaning boshqa tamoyillarining va ularning talablaridan, ikkinchi tomondan, talabalarni yosh xususiyatlaridan, uchinchi tomondan, ko'p yillik pedagogik tajriba asosida yaratilgandi.

Bu tamoyil zaminida tezaurus qonuni yotadi. Bu qonun bo'yicha kishida bilim faqat uning tezaurisiga mos kelgandagina tushunarli bo'ladi. Tezauris lotincha “xazina” ni bildiradi. Ma'nosi, keyingi to'plagan bilimi, ko'nikma va fikrlash uslubi uning tezaurisini tashkil qiladi. Boshqa qonuniyatlarni ham qqrishimiz mumkin: beriladigan bilimning tushunarliliigi, uni egallayotgan bolaning yoshi individual xususiyatlarga bog'liq; tushunarlilik bilim berishni tashkil qilishga va unda qo'llaniladigan bilim berish usul va uslublariga bog'liq; bilimning tushunarliliigi o'quvchining saviyasiga va bilim sifatida bog'liqligi, bilimni tushunarliliigi uni berish sur'atida bog'liqligi bilimni tushunarliliigi va hakozi.

Ilmiylik tamoyili. Bu tamoyil asosida bir qator qonuniyatlar yotadi jumladan;

- dunyoni o'rganib bo'ladi va insoniyat aniqlagan va amaliyotda sinab ko'rilgan qonuniyatlarni o'rgansa bo'ladi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni ilmiy faoliyat orqali to'plagan obe'ktiv olam to'g'risidagi ma'lumot tizimi oshib kelayotgan yosh avlodga bildiradi;
- ilmiylik beriladigan bilimlar ma'lum bir ketma-ketlikda berilishini taqoz

Nazariya va amaliyotning birligi tamoyili. Bu tamoyil falsafasining bilish nazariyasining markaziy qoidasiga asoslanadi. Unda bilimning birligi va asosiy nuqtai nazari bu hayotning va amaliyotning nuqtai nazaridir deyishadi. Har qanday bilimning to'g'risidagi amaliyotda sinab tasdiqlanadi.

Demak, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega chunki unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi qatnashadi. O'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etish uchun o'quv materialini tanlaydi va ta'limni tashkil etish yo'llarini belgilaydi. U ta'lim jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqaradi va rahbarlik qiladi. O'quvchining faoliyatini muvaffaqiyati avvalo u ta'limning mazmunini, metodlari va tashkiliy shakllaridan umuman didaktik prinsiplarni qanchalik to'g'ri amalga oshirishga bog'liqdir.

2.2. Ta'lim berish jarayonining mazmuni

Ta'lim deganda biz va insoniyatni ilmiy bilimlar hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan qurollantirish jarayonini tushuniladi. Tafakkurlarini shakllantirish jarayonini tushuniladi. Kasb egallash uchun zarur bilim ko'nikma va malakalarni o'quv yurtlarida oladilar. O'qitish – bu shaxsni tarbiyalash, bilim berishdan iborat. Shaxs turli omillar ta'sirida shakllanadi. Tarbiya esa shaxsni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, omillardan biridir. Respublikamizda kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadi yoshlarni asosiy maqsadi yoshlarni mehnat va kasb-kor ko'nikmalariga o'rgatish, ishchi xodimlar tayyorlash ularni malakasini oshirish va qayta tayyorlashdan o'tkazishdir. Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratilishi sifatidagi tegishli malakadarajasini olgach, ta'lim moddiy ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda xizmat ko'rsatadi. Ta'lim jarayoni orqali ish vazifani, ya'ni bilim berish orqali uch maqsad amalga oshiriladi.

1. Ta'limiy maqsad - fanlardan dars o'tish orqali va uning mazmunini bilish, ushbu fangi tegishli ilmiy bo'limlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish va amaliyotga tadbqiq qila olishdir.

2. Tarbiyaviy maqsad - fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy iymon-e'tiqodlarini shakllantirishdir;

3. Rivojlantiruvchi maqsad – ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasidagina o'quvchida mustaqil ishlash istedodi paydo bo'ladi.

Ta'limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Ta'lim jarayonida fanning eng zaruriy, eng muhimlari asosi o'rganiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchiga bilim berar ekan, uni soddadan murakkabga, umumiydan xususiyga etaklaydi. Xulosalar chiqarishda, hayotda ishlab chiqarishda qo'llay bilish o'rgatadi. O'qituvchi o'z fanini qanchalik sodda bayon qilmasin, u chuqur ilmiy bo'lishi lozim. O'qituvchi bilimlarni o'rgatar ekan, o'sha jaoayonda bolalarning imkoniyatlarini o'rganadi, quyidagilarni ko'radi, ularni bartaraf etish choralarini izlaydi. O'qituvchi yoshlarni yangi bilimlarni faol idrok qilishda, uni

hayotda qo'llay olishga tayyorlaydi. Bu tasodifiy hodisa bo'lmay, o'quv jarayonining mantiqida shuni taqozo etadi.

Kasb-hunar kollejlarida o'qitishning mohiyati shundan iboratki, talabalarin o'qishga qabul qilishdan boshlab o'quv jarayonining tao'kil etishi, mazmuni bilan me'zoni va bir nechta kasb-hunar egasi, ustasi, kichik mutaxassis bo'lib, o'qishni tamomlashidan iboratdir. O'quv jarayoni jahon talablariga mos keluvchi davlat ta'lim standartlari, ya'ni zamon talablariga javob beruvchi istiqbol va kelajakni ko'zlab ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari asosida tashkil etiladi.

Ta'lim berish jarayonni tizimlashtirilgan va tartibga solingan bo'lishi kerak. Ta'limning mazmuni muayyan yoshga qaratiladi va jamiyatning rivojlanishi darajasidan kelib chiqadi.

2.3. Darsning tashkiliy shakllarini tanlash va asoslash. Dars uning turlari va tuzilishi

Ilmiy bilimlarni talabalar qalbi va ongiga singdirish jarayoni ta'lim tarbiyaning zamon talablaridga va javob beruvchi turli shakllari orqali amalga oshiriladi. Ta'lim shakllari mashg'ulotlarni o'tkazish vaqtiga qarab hamda o'quvchi talabalarning tarkibi va ular faoliyatining xarakter-mohiyatiga qarab belgilanadi. Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda mashg'ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda Respublika ta'lim muassasalarida ta'limni sinf-dars shakllariga olib borish keng tarqalgan.

Sinf deganda, ya'ni yoshi va bilish darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi. Dars aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir. Dars-ta'limning asosiy shakli ekan u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo'lishi, bilimlar mustahkam o'zlashtirishi, o'quvchi-talabalarning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan va tashkil etilishi dars oldida didaktik talablar o'quvchilarni qurollantirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli o'quv mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtning asosiy

qismi dars o'tish uchun sarflanadi. Ta'lim tizimida tajribadan o'tgan dars turlari quyidagilardan iborat:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi;
2. O'quv materiallarini mustahkamlash va bilimlarni umumlashtirish darsi;
3. Takrorlash va bilimlarni umumlashtirish darsi;
4. O'quvchilarning o'zlashtirilishini nazorat qilish, baholash;

Ta'lim jarayonida eng qo'llaniladigan dars yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorlikka asoslanishi lozim. Shundagina o'qituvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi. Nutq madaniyati rivojlanadi. Muammoli vaziyat izlanishlar orqali o'z yo'lini topa oladilar. Uzluksiz ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud.

Ma'ruza – o'quv jarayonining ilg'or usullaridan biri bo'lib, unda o'quvchi tomonidan o'rganilayotgan bilimlar, masalalar, ko'nikmalar, talabalarda yoppasiga bayon etiladi. Ma'ruzaga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi mavzu bo'yicha savollarni qanday bayon qilishni, qanday uslublar qo'llashni ko'z o'ngiga keltirishi kerak. Mavzu bo'yicha adabiyotlarni, zarur ma'lumotlarni ana shundagina to'g'ri tanlashi mumkin. Yana shuni ham hisobga olish zarurki, agar o'qituvchi zarur dalillar ma'lumotlarga ega bo'lsada ularni ishonarli asoslangan holda bayon qilmasligi fandagi dolzarb savollarni javob berishda chetlab o'tish yoki chetga chiqarishi mumkindir. Bu masalalarda ma'ruzadan qoniqmaslikka, uning ishonchliligi va tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirishga olib keladi. Ma'ruzada odatda ko'proq bayon qilish etakchi rol o'ynaydi. Talabalar darsda passiv rol o'ynaydilar.

Amaliy, seminar darsida esa talabalar aktiv rol o'ynaydilar. Darsda turli uslublarni qo'llab, ularni faolligin ta'minlash imkoniyati keng. Amaliy mashg'ulot-o'quv ishlarining mantiqiy davomi bo'lib, bu termin talabalarning mustaqil auditoriya ishlarini umumiy tushunchasi bo'lib hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlarda mashqlar ishlash, tajribalarni o'tkazish kabilar amalga oshiriladi. Bilim berishning bu shaklida ma'ruzalarda olingan nazariy bilimlar berishlar bevosita amaliyot bilan bog'lanadi va o'quvchilar tajribalar tomonidan amalga oshiriladi.

Seminar mashg'ulotlarining maqsadi talabalarning chuqur bilim olishini ta'minlash olgan bilimni real hayotda qayta qo'llashdir. Buning uchun talaba olgan axborotlarini tashkil qilish ilmiy tadqiqot o'tkazish. Taqqoslash xulosa chiqarishni bilishi kerak. Bunday mahoratga ega bo'lishda ko'p jihatdan seminar darsi yordam beradi. Seminar darsini muvoffaqiyatli o'tkazish uchun eng avvalo asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni sinchkovlik bilan o'rganib chiqish zarur. Adabiyotlarni o'rganishni dars jarayonida talabalarning diqqatini qaratish lozim bo'lgan masalalarni alohida ajratish mavzuni qaysi usul asosida o'rganishni rejalashtirish va darsga tayyorlanish imkonini beradi. Ayniqsa auditoriyada muhokama qilish munozaralarga sabab bo'ladigan savollar qo'yilganda yuz beradi. Natijada mavzuni chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Demak, dars boshdan-oyoq bir dars turi bilan belgilanmaydi, balki shu darsda yangi bilimni bayon etish bilan birga uni mustahkamlash, ya'ni bilimlar ustida mashq o'tkazish, uyga vazifa kabi boshqa elemenlarning bo'lishi ham mumkin, shunga qaramay, darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar shunga bo'ysindiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

2.4. O'quv jarayonining o'quv me'yoriy hujjatlari. Darsning metodik ta'minoti

Ta'lim tizimi yagona o'quv ilmiy ishlab chiqarish sifatiga izchil rivojlanishini ta'minlash, hamda fuqarolarga ta'lim tarbiya berish kasb-hunar o'rganishning huquqiy asoslarini belgilash, har bir shaxsning barobar bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlagan. Ta'limning asosiy mazmunini uning vazifalarida oydinlashtiriladi. Ta'lim mazmuni quyidagi davlat hujjatlari va rasmiy hujjatlar tashkil etadi:

- 1.O'quv rejasi;
- 2.O'quv dasturi;
- 3.Darsliklar, o'quv qo'llanmalar;

O'quv rejasi ta'limning mazmunini belgilaydigan eng muhim hujjat bo'lib, unda mazkur o'quv yurtida o'rganiladigan o'quv predmetlarining tarkibi, ularning o'quv yillari va haftalar bo'yicha taqsimlanishi hamda har bir o'quv predmeti uchun ajratilgan vaqtlar miqdori ana shularga muvofiq ifodalanadi. O'quv rejasi asosida ta'lim mazmunining qabul qilingan qabul qilingan u yoki bu nazariya konsepsiyasini normativ yo'sinda va yaxlit xolda aks ettiradigan asosiy hujjatdir. O'quv rejalari o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. O'quv rejasida mazkur bilim yurtida o'quvchi-talabalarga beriladigan mos predmetlar tegishli hajmda keltiriladi. Har bir predmet uchun o'quv soatlarining miqdorini belgilashda birinchidan, predmetning ta'lim tizimidagi roli va ahamiyati, ikkinchidan mazkur predmet bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan va o'quv materiallarining hajmi, uchinchidan u yoki bu predmetning o'rganishning didaktik xususiyatlar e'tiborga olinadi.

O'quv dasturining asosiy vazifasi, o'quv predmetining va uning mazmunini ifodalashdir. Unda ma'lum bir fannin kurslarda, qismlarida, mavzularda bo'lishi ularni o'rganish tartibi, soatlar turi ko'rsatiladi. Dastur ikki vazifani ta'lim mazmunini o'quv predmeti doirasida aks ettiradi va o'qituvchiga yo'llanma sifatida xizmat qiladi. Har bir o'quv predmeti bo'yicha dastur to'rt qismdan tashkil topgan: tushuntirish xati (har bir fan uchun alohida) , ro'yxat ko'rinishidagi mazmunini (mavzular, masalalar, laboratoriya va amaliyotlar) predmetlararo aloqalar ko'rsatilgan bo'lish hamda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar va ifodalangan bo'linmalardan iborat. Kursning maqsadlari va vazifalarining eng muhim elementidir. Dasturda ta'limning mazmunini masalalar ro'yxati orqali ifodalanadi. O'quv materiallari talabalarga mo'ljallangani metodik tavsiyalarda yoritiladi. Darslik asosiy normativ hujjat hisoblanadi. Darslik-o'quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. Darslik o'qituvchi uchun ham metodik yo'llanma sifatida xizmat qiladi, tushunchalarni kiritish tartibini, ularni yoritish chuqurligini kiritilgan o'quv materiallariga vaqtning taqsimlanishini belgilaydi. Darslik bilan o'quv jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, unda savollar, topshiriqlar,, jadvallardan, statistik, xronologik ma'lumotlar va boshqalar o'z o'rnida foydalanish mumkin. O'quvchi-talabalarga muhim bir fan asosida dars o'tilayotganda qo'shimcha adabiyotlardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Fan

yuzasidan shu soha olimlari tomonidan chiqarilgan o'quv va uslubiy qo'llanmalarda foydalanish, jurnal va internet xabarlaridan foydalanib dars o'tilganda talabada qiziqish yanada kuchayadi. Dars o'tish jarayonida tarqatmali materiallardan va jadval va grafiklardan foydalanish lozim. Dars o'tishda metodik ta'minlanishi yuqori bo'lsa o'quvchilarda qiziqish kuchayadi.

2.5. Ta'lim metodlari. O'qitish metodlarini tanlash va asoslash

Pedagogik jarayonda ta'lim-tarbiya metodlarini tanlash markaziy masalalardan biridir. “Metod” ob'ektiv olamni bilish, tadqiq qilish usulidir. Ta'lim metodi ilm-fan, kasb-hunar yoki alohida o'quv predmetiga oid bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy vazifalarni o'zlashtirish maqsadidagi qo'llanmalardan o'quvchi va o'qituvchilarning hatti-harakat usullari tizimidir. Ta'lim metodlari, pedagogik jarayonidan ko'zlangan maqsadga binoan pirovard natijani tamin va yo'l (usullar) tizimidir. Metodlar o'z navbatida usullardan tashkil topadi. Ta'lim-tarbiya metodlarida pedagogikaning obektiv qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, prinsiplari, shakllari o'zi ifodasini topadi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagogik va o'quvchilarning o'zaro aloqalar hamkorlik faoliyati usullari ta'lim metodlari deb yuritiladi. Har qanday ongli faoliyatni o'zaro aloqador tashkil etish, qiziqtirish amalga oshirishi va nazorat qilish bosqichlaridan iborat bo'lganligi bois N. K.Babanskiy ta'lim metodlarini ham quyidagi uch guruxga ajratadi:

- 1.O'quv bilish faoliyatlarini tashkil etish metodlari;
- 2.O'quv-bilish faoliyatida rag'batlantirish metodlari;
- 3.O'quv-bilish faoliyati samaradorliginii nazorat qilish;

Ta'lim metodlarining samaradorligi bilan har qanday va turli sharoitda oxir-oqibat o'quvchilar o'zlashtirgan bilim ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarining shakllanishi samaradorligi va sifatiga bog'liq bo'ladi; ta'lim metodlaridan samarali foydalanishi uchun ularni ta'lim tizimida va uni tasavvur etish zarur. Biz quyida

akademik N.K.Babanskiy taklif etgan metodlar shajarasi bilan tanishishga harakat qilamiz va ular quyidagilarni tashkil qiladi:

I Ta'lim metodlari axborotlarni uzatish va idrok etish manbaiga ko'ra quyidagicha turlanadi;

1. Og'zaki (hikoya, suhbat, ma'ruza);
2. Ko'rgazmali (rasmlar, diagrammalar ko'rsatish);
3. Amaliy (tajriba-sinov ishlari, o'quv ishlab chiqarish mehnati kabilar);

II. Axborotlarni uzatish va idrok etish mantig'iga ko'ra ta'lim metodlari: induktiv va diduktiv bo'ladi. Induksiya xususiy, juz'iy hodisa va dalillardan umumiy xulosaga kelish usuli, diduksiya esa umumiydan xususiy xulosa chiqarish yo'lidir.

III. Bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarining fikr yuritish mustaqilligidarajasiga ko'ra quyidagicha fikr yuritish mustaqilligidarajasiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

1. Maxsulsiz (o'quvchilar nafaol ishtirokchi bo'lib qatnashadilar)
2. Maxsulli (o'quvchilarning faol izlanishlaridan o'quv bilim va ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etishlarini ko'zda tutadi).

IV. O'quv ishlarining bosqichlarini darajasiga ko'ra:

1. O'quvchilarning bevosita rahbarligidagi o'quv ishlari;
2. O'quvchilarining o'z ustilarida mustaqil ishlari: (kiiob manba) lar bilan yozma ishlarni bajarish; laboratoriya ishlari, mehnat vazifalarini bajarish kabilar);

V. O'quv ishlarida qiziqish metodlari:

1. O'quv bilish o'yinlari;
2. O'quv munozaralari;
3. Emosional axloqiy vazifalari;

VI. Burch va javobgarlikka rag'batlantirish metodlari;

1. O'qib-o'rganishning muhimligiga ishontirish;
2. Talablar qo'yish;
3. Talablarning bajarilishi yuzasidan mashq qildirish;
4. Rag'batlantirish va jazolash;

VII.Og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari individual so'rov; og'zaki sinov, og'zaki imtihon, mashinali yoki mashinasiz nazorat, og'zaki o'z-o'zini nazorat qilish.

VIII. Yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari, yozma nazorat ishlari, yozma sinov ishlari, yozma imtihonlar, yozma dasturlashtirilgan ishlarni bajarish, va yozma o'z- o'zini nazorat qilish;

IX. Laboratoriya amaliy va nazorat va o'z- o'zini nazorat qilish metodlari:

- 1.Laboratoriya amaliy nazorat ishlari;
2. Mashinali yoki mashinasiz nazorat ishlari;
3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun mo'ljallangan laboratoriya amaliy ishlarni bajarish.

X. Shaxsiy his-tuyg'ularni shakllantirish (tarbiyaning) metodlari, suhbat, namuna bo'lish, ma'ruza, munozara;

XI. Ijtimoiy axloqiy tajribalar va amaliy faoliyatni tashkil etishni shakllantirish metodlari, pedagogik talab, jamiyat fikr munozaralari, odatlantirish, mashqlantirish, tarbiyaviy vaziyatlarni yuzaga keltirish.

XII. Odob-axloq va xulq-atvorni rivojlantirish metodlari:

1. Musobaqa, 2.Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish va 3. Jazolash; Real pedagogik jarayonda metodlarning qanday turlari bor yoki bilishning emas, balki ulardan samaralifoydalana olish muhimahamiyat kasb etadi. Bu metodlardan foydalanish nisbatan ko'p vaqt talab etadi. Zarur jarayonda tafakkurlash qobiliyatini rivojlantiradi. Mustaqillik izlanuvchan faoliyat ko'rsatishda imkon bermaydi. Ulardan haddan tashqari ko'p foydalanishda materialning asl mohiyatida tushunmay ko'r-ko'rona yod olishga olib keladi.


2.6. Pedagogik texnologi va pedagogik mahorat

Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga va unga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi. Pedagogik texnologiya-o'quvchi va o'qituvchining ularda zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyixalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha pedagogik faoliyatning har tomonlama qo'llangan modelidir.

Pedagogik texnologiya-pedagogik maqsadlarga va shu maqsadga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi. Ta'lim jarayoni deganda ta'limning belgilangan maqsadi va talabaning bilim darajasiga ko'rafaoliyatini boshqarishning nazariy loyixasi va pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi

Kasbiy o'qitish texnologiyasi shaxsni intizomi, iroda va ixtisoslikka bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi va mutaxassisga bo'lgan har qanday talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari, o'qituvchi va o'quvchining hamkorligiga qaratilgan ta'lim texnologiyalari o'quvchi va o'qituvchining hamkorligiga psixologik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo'naltiradi.

Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash texnologik va uning tamoyili bo'lajak kasbiga qaratilgan maqsadlar, mazmun funksiyalari, o'qitish metodlaridir. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalar ishlab chiqildi. Yangi pedagogik texnologiyalarning maqsadi o'quv jarayonini diagnostikasi uni rejalashtirish va uni amalga oshirishni loyihalash, undagi o'qitish metodlarini va vositalarini o'zgaritirib turishdan iborat. O'quv yurtlarida ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqatilgan pedagogik texnologiyalarga quyidagilar kiradi



1- rasm Yangi pedagogik texnologiyalar

O'qitishning faol usullari

An'anaviy o'qitish jarayoni tafakkurning nazariyadan-amaliyotda xarakatida asoslangan bo'ladi. Produktiv o'qitish jarayoni esa, tafakkurning boshqacharoq mantig'iga, amaliyotdan o'qishga asoslangan bo'ladi. O'qituvchining produktiv o'qishni ta'minlaydigan eng samarali texnologiyalardan biri o'qishni ta'minlaydigan eng samarali texnologiyalardan biri o'quv loyixalash texnologiyasidir. Uning asosida Duim ishlab chiqqan bu konsepsiya progmatik va o'qitish konsepsiyasi bo'ladi. "Programma" grekcha so'z bo'lib ish faoliyati degan ma'noni bildiradi. Bu ilmiy tadqiqotga yo'naltirilgan, o'quvchilarning kashfiyot qilishlarini ta'minlaydigan tadqiqot metodlaridan foydalanilad. Bunday faoliyatning asosiy mohiyati tafakkur jarayonini o'zi emas, aniq muammolarni ochishga intilish va zarur tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llashdan iborat. Bu texnologiyada pedagog pedagogik jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sharoit va muhitni tashkilotchisi sifatida qatnashadi. Turli xil loyixalarni bajarish jarayonida o'rgatuvchilar ma'lum bilim va uquvlarida ehtiyoj sezganlar. Shu maqsadda maxsus darsliklar yozilgan. Ular loyixa, loyixa metodi bo'yicha ishlashga moslashgan bo'lgan (darslik-gazeta, darslik, jurnal) ularda loyixa uchun zarur bo'lgan tezkor axborot saqlangan. Loyixa turlari, unda qatnashadigan talabalar soniga ko'ra tartibda juft bo'lib, guruxni bo'lishi mumkin. Izlanish faoliyati va ustivor metodlariga ko'ra:

- tadqiqiy;
- ijodiy va informasion loyixalar;

Tadqiqot loyihalash-o'z xarakteriga ko'ra ilmiy tadqiqotlarni eslatadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi.


- muammoning dolzarbligini va ishlab chiqarilganligini;
- ob'ektiv va predmeti;
- gepotezalar (vazifalar);
- vazifalar;
- muammo o'rganish metodikasi va metodologiyasi;
- axborotni yig'ish va tashkil qilish, tajriba o'tkazish;
- amaliy va tavsiyalar ishlab chiqish;

2.7 O'qitishning texnik vositalaridan foydalanish. Ko'rgazmali qurollar

Axborotlar hajmining kun sayin oshib borishi o'quvchilarga ularni etkazish uchun o'quvchining texnik vositalari yordamga keladi. Hozirgi vaqtda barcha fanlarni samarali o'qitishda foydalanilayotgan texnikani vositalariga quyidagilar kiradi; proektorlar va kinoproeksion apparatlar, magnitafonlar, televizorlar, bilimni nazorat qiluvchi va imtihon oluvchi mashinalar va kopm'yuterlar kiradi. Ular o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlansa va samarali qo'llanilsa, o'tiladigan darsning mazmuni chuqurlashadi va o'quvchi oladigan va uning samarasi yanada yaxshilanadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish uchun ta'limning zamonaviy texnika vositalari yordamida dars o'tishning maqsadga erishishga yordam beradi. O'qitishning texnik vositalari yordamidan tashkil etish hamda, ko'rgazmali materiallardan foydalanishi orqali ham ko'rsatish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarni turmushdagi zaruriyatini anglab etishlariga asos soladi, diqqatni barqarorlashtiradi.

Ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish uchun ta'limning zamonaviy texnika vositalardan keng foydalanshga quyidagilar kiradi: grafiklar, sxemalar, tarqatmali materiallar, proektoriyalar, o'quv televideniya, komp'yuterlar, elektron hisoblash mashinalari, kinoapparatlar, audio magnitofonlar, internet xabarlar, doska, doska stendlar. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qitish vositalaridan foydalanib darslarni o'qish, ta'lim-tarbiya sohasidagi tub burilishni yasaydi. Bulardan tashqari juda ham ko'p texnika vositalari mavjudki, ularni unumli foydalanilsa o'quvchilarining bilim darajasi yanada oshadi.



2-rasm. Ta'limning zamonaviy texnika vositalari.

Agar pedagogik tizimda ta'limning texnik vositasi sifatida komp'yuter ishlatiladigan bo'lsa, pedagogik tizimning boshqa elementlari ham shuncha mos ravishda tashkil etishi kerak, shundagina komp'yuterlarining barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqaradigan va yangi takomillashgan pedagogik texnologiya hosil bo'ladi. Internet ta'lim sohasida katta ahamiyatga ega. Internet yordamida barcha narsani bilish mumkin va deyarli barcha bilish mumkin va deyarli barcha savollarga javob topish mumkin.

2.8.An'anaviy o'qitish metodlari

O'qituvchi aniq fanni boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro bog'langan holda uning o'qitish maqsad va vazifalarini belgilaydi, o'quvchining o'quv bilish faoliyatini jonlantirishni ta'minlaydigan o'qitishning zamonaviy shakl va metodlarini o'ylab topadi.

An'anaviy dars-ta'lim bir muddati mo'ljallangani, ta'lim jarayonida asosiy bajaruvchi shaxs o'qituvchi hisoblanadigan mavzuga kirish, aniqlashtirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat bo'lgan ta'lim metodidir. An'anaviy o'qitish metodlari anchagina murakkab bo'lgan yangi o'quv materiallarini berishda foydalanish yaxshi natija beradi. O'quv jarayoning mohiyati o'quvchi bilish faoliyatining mantig'i, bo'lib, u birinchidan bizdagi bilimlarning yagona manbai bo'lishi amaliyotni o'rganishdan boshlanishi va fikrlash, asosida nazariy umumlashtirishdan kelib chiqadi. Bu metodda asosiy yo'naltirish markazida o'quvchi turib quyida ijobiy jihatlarga erishiladi:

- o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish;
- oldin olgan bilimlarini inobatga olish;
- o'quvchining tashabbusini va majburiyatda qo'llab-quvvatlash;
- o'quv jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- o'qituvchining o'quvchilar uchun o'quv jarayonini engillashtirish;
- o'quv jarayonini xolisona baholash;
- vaqtdan unumli va samarali foydalanish;
- aniq ilmiy bilimlarga tayanish va ulardan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanish kabi ishlarni amalga oshirish va unga yordam beradi.

An'anaviy darsning samaradorligini oshirish va darsda o'quvchilarning faolligiga erishishi uchun yangi darsda o'quvchilarning kichik-kichik bo'limlarga bo'linib o'tish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'quvchilarning bu materialllarni qanday o'zlashtirib borayotganligini nazorat qilib borish va bu maqsadda turli xil mashq va topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil qilish, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligini muttasil rag'batlantirib turish, o'quv materiallarining mazmunini oshirishda bahs-munozaraga, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqod, rol o'yinlar metodlaridan foydalanish, rang-barang qiziqtiruvchi misollarni keltirish, o'quvchilarni amaliy masala va mashqlarni mustaqil ravishda bajarishda undan tushuncha baholash usullari va ta'lim vositalarini o'z o'rnida qo'llash tavsiya etiladi.

Oliy maktabdagi o'qitish usullari muammosi ko'p sonli tadqiqotlarning mavjudligiga qaramasdan hozirgacha hal etilganicha yo'q. Bu o'qitish usullarining dilektikligi, oliy maktabdagi ta'lim mazmunining takomillashtuvi, ilmiy texnik taraqqiyotining o'sib borishi bilan izohlanadi.

Oliy maktabdagi o'qitish metodlari nafaqat dars berish usullari va uslublarini bildiradi, balki bilishning o'quv va ilmiy faoliyatda yo'naltirilgan tizimi ekanligini qayd qiladi. O'qitish usullari bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy egallashda hamda uslubiy va g'oyaviy-siyosiy e'tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida belgilanadi.

2.9. Kasb-hunar ta'limida inovasion texnologiyalar

Inovasion ta'lim bu bo'lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat. Unda ta'lim-tarbiyada yangicha sifat ko'rsatkichida erishib, yuqori samaradorligini qo'lga kiritish amalga oshiriladi va ijodkorlikka yo'naltiriladi hamda ta'lim texnologiyalarini yangicha sifat bosqichiga ko'tarish, shuningdek ta'lim-tarbiyada zamonaviy yondashuvlarni tashkil qilib berishni ta'minlaydi. Inovasion ta'limda zamon bilan hamnafas ta'lim texnologiyalarini yaratish bilan shug'ullanishda doim imkoniyat bor.

Inovasion ta'lim o'ziga xos ijobiy xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

- kadrlar tayyorlash tizimida ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishini ta'minlaydi.

Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli

inovasion loyixalarni shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilm-fanning ta'lim amaliyoti bilan va integrasiyani ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqildi;

- ilg'or pedagogik texnologiyalar va yangi axborot texnologiyalarini joriy etish uchun o'rta umum ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlarida eksperimental maydonchalar tashkil etish orqali ilmiy-tadqiqot natijalarini o'quv-tarbiya jarayonida bu o'z vaqtida joriy etish mexanizmlarini ro'yobga chiqarishda samarali foydalanishga erishiladi;

- ta'lim jarayonining istiqbolligini olgandan ko'rish, bilish ya'ni ta'lim beruvchining avvvlg'i va hozirgi tajribalari asosida o'qitish emas, balki ta'lim oluvchini uzoq kelajakni mo'ljallashga (istiqbolli reja tuzishda) o'rgatishdan iborat bo'lib, unda ta'lim oluvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda tashxizlash, bashoratlash, modelllashtirish va loyihalashtirishni amalga oshiga olish zarur;

- ta'lim oluvchilarning hamkorlikda ta'lim olish va optimal qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni madaniyat rivojlanishini hisobga olishda global muammolarni hal etish) da faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Inovasion ta'lim bo'lajak mutaxassisini yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, oldingi olgan bilimlarni asosida ta'limni takomilllashtirishda samarali yangi yondashuv qilishdan iboratdir.

Inovasion ta'limning asosiy maqsadi ta'lim berishda undagi yuqori samaradorlikni va ijoviy sifat ko'rsatkichlarini egallashning metodikasini yaratish. Bunda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari va hokozolarga asosiy manbalar bo'yicha hisoblanadi.

Yoshlarga ta'lim berish, tarbiyalash va ularning umumiy rivojlantirishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Ta'lim tizimida ta'lim va tarbiyaning birligi qoidasi asosida va etakchi qoidalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash va uni ta'lim bilan birga, bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

2.10. Programmalashtirilgan ta'lim

Programmalashtirilgan ta'lim o'qitishnitashkil etishning bir shakli bo'lib, o'quv jarayonida kibernetika g'oyalari va prinsiplarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ta'limning tashkiliy shaklini amalga oshirish uchun faqatgina kibernetikaning g'oyalari emas, balki har bir o'quvchi bilan doimiy ikki tomonlama axborot almashinuvini ta'minlaydigan ta'limning yangi vositalari va masalalari ham kerak. Texnologiyaviy avtomatlashtirish va programmalashtirilgan qo'llanmalar tufayli ta'lim sharoitida teskari aloqa va o'qitishning individuallashtirish prinsiplarini, faollik va onglilik prinsipi eng samarali amalga oshirish, o'quv jarayonidagi mustaqil ishni tashkil qilishning yangi shakllarini topish imkoniyati vujudga keladi. Bunda esa o'qituvchisiz ta'limning borishini bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishning turlicha bosqichga muvofiq o'zlashtirish va ta'limning borishini o'zlashtirish dinamikasiga moslashtirish mumkin bo'ladi. Xususan ana shu ta'limni programmalashtirish sababli o'qitish nazariyas va amliyotida vujudga kelgan yangilik hisoblanadi.

Programmalashtirilgan ta'lim bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirish masalasini hal qiladi. Bu masala kibernetika bilan ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan psixologik pedagogik fanlar tutashgan joyda hal bo'ladi.

Programmalashtirilgan ta'limda o'quv materiallari bo'yicha tayyorgarlikka, bayon qilishga va so'rovga qo'yiladigan aniqlik talablari to'la qonuniy va zarurdir. Chunki o'quv jarayoni boshqariladigan jarayon bo'lishi va uni o'qituvchi yoki texnik vositada joylanadigan dastur, programmalashtirilgan darslik, o'qitish mashinasi va boshqa zamonaviy elektron akustik proektsiyalovchi apparatlar yordami bilan olib borish kerak. Mashg'ulotlar jarayonida dasturlashtirilgan ta'limni o'qitish vositasi bilan yakkama-yakka keladigan o'qitishning ishidagi barcha ijobiy va salbiy tomonlarini maksimal darajada hisobga olish uchun o'quv materiali qanchalik aniq sistemallashtirishni tasavvur etish mumkin. Har qanday didaktika tili bilan aytganda, topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish uchun uni bajarishga barcha usullarini

o'zlashtirish kerak. Axborot faqat miqdori bo'yicha emas, balki maqsadga erishish ehtimolini oshirishga ko'ra qimmatini bo'yicha o'lchanish lozim.

Programmallashtirilgan ta'lim va tarbiyaning asosiy va umuman qabul qilingan vazifasi ta'lim va tarbiya jarayonini boshqariladigan jarayonda aylantirishdan iborat ta'limdagi ana shu istiqboll va ilg'or yo'nalish faqat bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga esa, balki u ishning individual usulbini shakllantirishga qaratilgandagina chinakam optimallashtirish yo'nalishga aylanadi. boshqacha hollarda o'zlashtirish jarayonini programmallashtirishni individuallashtirish o'quvchilar bitta topshiriqni o'z qobiliyatlariga qarab turli usullar bilan bajarishdan iboratdir.

Ko'rsatmali fikrlashga moyil o'quvchilar oldin o'rganiladigan predmetning tasvirini berishda maqsadga muvofiqdir. Programmallashtirilgan ta'lim o'zining shakliga ko'ra o'qituvchilarning ta'limiy materialini maxsus qayta ishlash bo'yicha mustaqil faoliyatining alohida turidir.

2.11. Bahs – munozara metodi

Munozara shaklidagi mashg'ulot ikki bosqichli qilib o'tkaziladi. 20 ta talaba bo'lsa to'rttadan yoki besh kishidan iborat kichik guruhlar shaklida o'tkaziladi. Ya'ni har stolda davra qilib o'tiriladi. shunday qilib, guruxda to'rt yoki beshta davra hosil bo'ladi. Bugungi mashg'ulotdagi hal qilinishi kerak bo'lgan muammo to'rt yoki beshta masalaga bo'linadi. O'qituvchi guruhlar hal qilish lozim bo'lgan masalalarni alohida qog'ozga yozib keladi. Har bir guruhga turli savollar tarqatiladi. Agar muammo yangi bo'lsa, har bir kartochkada qog'ozga savollarga qisqacha izohlar berilishi kerak yoki muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan materiallar bilan tanishish talabalarga oldindan topshiriladi. Har bir guruhga o'zlari olgan masalalarni kichik guruhlarda o'zaro ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yib munozarani tashkil qilishni va tegishli javob hozirlash uchun 5-10 minut beriladi va munozaraning ikkinchi bosqichi boshlanadi. Unda har bir kichik guruh vakili o'zlari hal qilgan masalani butun guruhda, jamoada gapirib, isbotlay bilishi kerak. Bu vakilning javobi boshqa guruh a'zolari tomonidan

umumiy munozaraga olinadi va umumiy xulosa chiqariladi. Bunday o'qituvchi munozaraga ijodiy hamkor sifatida, eng zarur paytlarda ishtirok qilishi kerak. Chunki u erkin fikrlashga to'siqlik qiladi. Albatta, o'qituvchi xulosaviy fikrlarda agar zarur bo'lsa, yordamga kelishi kerak. Xuddi shunday beshta guruxlarning javoblari munozarada hal qilingach (5-10 minutdagi) umumiy qo'yilgan muammo muxokamasida hamma qatnashadi. Yakuniy xulosalar doskaga yoziladi. Talabalarga tegishli reyting ballari munozara davomida va munozarani yakunida qo'yib boriladi.

3. Ijtimoiy iqtisodiy masalalar majmuasi

Korxona iqtisodiy salohiyatining ishlab chiqarish barqarorligiga ta'siri

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaga iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishi va unga ma'lum darajada foyda keltirish uchun moddiy (asosiy vositalar va aylanma moddiy aktivlar ham ishtirok etadi. Ularning jamlanmasini oldingidek moddiy va mehnat resurslari deb atab bo'lmaydi. Korxonaning iqtisodiy salohiyati deganda, unda sodir bo'ladigan moliyaviy xo'jalik faoliyatini (iqtisodiy jarayoni) to'liq ta'minlashda bevosita ishtirok etadigan barcha moddiy va mehnat resurslari (boyliklari) hamda nomoddiy aktivlar majmui tushuniladi.

Iqtisodiy taxlil va amaliy fan bo'lganligi tufayli undagi qo'llaniladigan barcha tushunchalar va ko'rsatkichlarining nomi, mazmuni va qiymati bo'lmasdan aniq, hisoblanadigan ma'lum bir sohani o'ziga ifoda etadigan bo'lishi lozim. Ushbu nazariy muloxaza bevosita korxonaning iqtisodiy salohiyatida ham tegishli. Shu tufayli uni baholashning ba'zi nazariy va metodologik jihatlariga iqtisodiy taxlil nazaridan e'tiborni qaratish maqsadi to'g'ri deb o'ylaymiz. Zero korxonaning iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi. Korxonaning iqtisodiy salohiyati umumiy hajmini baholash yo'llari. Iqtisodiytda har qanday kategoriya ma'lum o'lchamga ega bo'lishi lozim. Huddi shunday korxonaning iqtisodiy salohiyatini baholashda eng avvalo, iqtisodiy taxlilining maqsadi va vazifasidan kelib, chiqqan holda uning qiymatini baholashda asosan buxgalteriya balansidagi ma'lumotlardan fodalaniladi. Buning uchun buxgalteriya balansidagi asosiy vosita (AV) aylanma

mablag'lar (AUM) va nomoddiy aktivlarning umumiy summalarini hamda hisob-kitob orqali uchinchi va xizmatchilarni pulda ifodalangan qiymatini olish mumkin. Shunday qilib, korxonaning iqtisodiy salohiyatini taxlil qilishga xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonda ishtirok etadigan barcha moddiy resurslar (asosiy va aylanma mablag'lar) nomoddiy aktivlar va mehnat resurslari bilgalikda mushtarak holda o'rganiladi. Moddiy resurslar va nomoddiy aktivlari bilan birgalikda ular to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansida ifodalanadi, ammo mehnat resurslari esa hisobot tarkibida ko'rsatilmaydi. Buxgalteriyani balansida ayniqsa korxona iqtisodiy salohiyatini baholashda moddiy resurslar va nomoddiy aktivlar bilan birgalikda mehnat resurslari qiymatini ham inobatga olish lozim. Ammo bu ko'rsatkich buxgalteriya balansida ko'rsatilmaydi. Shu tufayli uning puldagi ifodasini topshirishni taqozo qiladi. Hozirgi paytda mehnat resurslarining bahosini bema'lol aniqlash uchun umumiy asos yaratilgan. Xodimlar ish kuchining umumiy qiymatini pulda ifodalashning quyidagi amalini bajarish lozim. Birinchidan barcha xodimlarni kategoriyalarga bo'lib chiqiladi. Har bir kategoriyadagi xodimlarni tayyorlashga ketgan qiymati aniqlanib, shu kategoriya bo'yicha ularning umumiy summasi topiladi. Ikkinchidan har bir kategoriya bo'yicha aniqlangan summalarini qo'shib xodimlarning shartli bahosini ifodalaydigan jami summasini topish mumkin. Buning uchun quyidagi matematik modelini qo'llashni tavsiya etadi

X

Bunda X -xodimlarga ketgan harajatlarning jami summasi (ish kuchining umumiy qiymati);

I-xodimlar kategoriyasining umumiy soni ($I = 1, p$);

p- xodimlar kategoriyasining umumiy soni;

a1-1-kategoriya xodimlarning tayyorlashga ketgan xarajatlari; V1-1-kategoriya xodimlarining malakasini oshirishga ketgan xarajatlar;

Endi korxonaning iqtisodiy salohiyatining umumiy qiymatini aniqlash mumkin. Bu o'rinda quyidagi formulani tavsiya qilamiz: $K = \dots$

----- bunda A asosiy vositalarning (kapitalining) o'rtacha qiymati; -
 nomoddiy aktivlarning o'rtacha qiymati;

Agar ushbu formuladagi natijani "U" optimalarini $x_1, x_2, \dots, x_n$ deb belgilasak, yuqoridagicha ifodalash mumkin:

$$U = x_1 x_2 x_3 \dots x_n,$$

Ushbu matematik modelda taxlilining an'anaviy usullarini qo'llab, amaliy ma'lumotlardan foydalangan holda va natijani ta'minlovchi barcha omillar ta'sirini hisoblab chiqsa bo'ladi. Buni amalga oshirish uchun buxgalteriya balansi va hisotlar asosida korxona iqtisodiy salohiyatiga kiruvchi kategoriyalarni alohida elementlar bo'yicha ham aniqlash mumkin.

Korxonani iqtisodiy salohiyatini keltirilgan harajatlarni nuqtai nazaridan hisoblash uning qancha qismi shu hisobot davrida yangidan yaratilgan maxsulot ish xizmat qiymatida keltirishni aniqlash uchun zarurdir. Bunda aylanma mablag'larning to'liq summasi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning shu joriy yil davomida eskirish summasini hamda ishchi hizmatchilarga to'lanadigan mehnat haqqi summasini olish mumkin. Buni aniqlash uchun quyidagi formulani tavsiya etamiz;

$$KR = (AV \times AN) + (AuM \times X_{Au}) + (N_{X-E} \times En) + Mh, \text{ bunda:}$$

AN -asosiy vositalarning eskirishi (amortizatsiya normasi);

X_{Au} -aylanma mablag'larning aylanuvchanlik koeffitsiyenti;

En -nomoddiy aktivlarning eskirishi normasi;

Mh -mehnatga to'lanadigan xarajatlarni summasi;

Ushbu ko'rsatkich korxona iqtisodiy salohiyatining joriy davrdagi ishlatilishi mumkin bo'lgan qiymatni ifodalaydi. Uni korxona salohiyati keltirilgan harajatlari deb ham atash mumkin. Korxona iqtisodiy salohiyatini joriy harajatlarni joriy harajatlarda ifodalash muhimdir. Bu ko'rsatkich, uning joriy yilda ishlatishni evaziga va qancha harajat keltirilganligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich umuman olganda harajatlarni tartibida o'z aksini topadi: Masalan, savdo korxonasini oladigan bo'lsak ushbu xo'jaliklar shu soxaning muomila harajatlari tarkibida balki butun faoliyatini yurgizish uchun ketgan harajatlarni miqdorini aniqlash ham ularning samaradorligini baholash, taxlil qilish va boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq shuni e'tirof etish

kerakki, muomala harajatlari tarkibida iqtisodiy mazmuni jihatidan unga kirmaydigan juda ko'p harajatlar mavjud. Muomala harajatlari bevosita tovar muomalasi bilan bog'liq harajatlarni ishlab chiqarilgan toki iste'molchilarga etkazib berish bilan bog'liq barcha harajatlar kirishi lozim. Ammo hozirgi paytda uning tarkibida bir qancha muomala harajatlarda daxli yo'q ajratmalar kiritilgan. Nazariy jihatdan to'g'ri bo'lishi uchun ushbu harajat va ajratmani alohida ifodalash lozim. Bu esa savdo tashkilotlarida "Muomala harajatlari to'g'risida" gi hisobotni o'zgartirishni taqozo qiladi. Uni "harajatlar to'g'risida"gi hisobot deb atash maqsadga muvofiq. Bu hisobotni ikki kishiga bo'lish mumkin muomala harajatlari va boshqa harajatlar. Ikkinchisi alohida moddalari bo'yicha ifodalansa, harajatlar iqtisodiy mazmuni jihatdan to'g'ri ifodalangan bo'ladi. Harajatlarni bunday guruhlariga bo'oishishi, hozirgi savdo korxonalarining davlat tasarrufidan chiqarib va unda asosan xususiylashtirilgan paytida nima uchun kerak degan savolning tug'ilishi tabiiy. Bunga javoban ta'kidlamoqchimizki, bozor iqtisodiyoti o'zboshimchalik emas. Har bir iqtisodiy kategoriya yoki uni ifodalovchi ko'rsatilgan ko'rsatgich qachonki mikroiqtisodiyotda to'g'ri hisobga olib borilsagina jamiyat miqyosidagi mikroiqtisodiyotning taraqqiyotini to'g'ri aniqlash va uning ustivorligini ta'minlash imkonini beradi. Bu esa har bir ko'rsatgich va hodisalarni to'g'ri baholash yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqarishni tavoza etadi. Asosiy vositalar kapital uchun sarf qilingan joriy g'arajatlarga asosiy vositalar amortizasiyasi; binolar, jihozlar va engil mashinalarni ta'minlash va ijaraga berish harajatlari; ta'minlashga ketgan harajatlar tarkibiga nomoddiy aktivlarning taxlili qilinayotgan davrda ajratiladigan eskirish qiymati va boshqa shu kategoriya bilan bog'liq harajatlar kiradi. Aylanma mablag'lar uchun sarf qilingan joriy harajatlarga maxsulotlar, xomashyo va tovarlarni tashishga ketgan harajatlar. Bank muassasalariga to'lanadigan foiz summasi. Tovarlarni saralash, o'rash saqlash hamda sotuvchilarni ta'minlash harajatlari, ham baholi vatez eskiruvchi buyumlar, maxsus kiyimlar va idish-tovog'larning eskirishi, nobud bo'lishi harajatlari kabilar kiradi. Mehnat faoliyatidan foydalanganlik uchun sarf qilinsa joriy harajatlarga mehnat haqi harajati ijtimoiy sug'urta ajratmasida ajtarmalar kiradi. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini joriy harajatlar miqdori bilan baholash uchun quyidagi formulani tavsiya qilamiz

Korxona iqtisodiy salohiyatini baholashda qo'llaniladigan keltirilgan va joriy harajatlar summasi ularning ishlatilishi va qoplashi muddatlarini aniqlash uchun foydalaniladi. Mamlakatimizda ro'y berayotgan iqtisodiy munosabatlarni ishor qilish jarayonlari ishlab chiqish va xo'jalik faoliyatini bozor talablaridan foydalanishni yo'li va ishlab chiqarishni boshqarish usullari bilan va uni tashkil etishga va sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash yangi yondashuvlarni taqozo etmoqda. Chunonchi mulkning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati tashkiliy-huquqiy shakllari, sanoat korxonalari ishlab chiqarish va bozor munosabatlarning son va sifat tavsifida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Tubdan o'zgargan tashqi muhit xo'jalik faoliyatini bozor raqobati sharoitida ish yuritish ko'nikmalarini talab qila boshladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, "Iqtisodiy o'sishga erishish avvalombor ishlab chiqarishni modernizastya qilish, yangilash prinsipial faoliyatga ega". Chunki korxonaning raqobatbardoshligi tarkiban yangi va takomillashtirilgan maxsulotda, jahon ilmiy-texnik taraqqiyotining eng yangi yutuqlariga javobberadigan yalpi ishlab chiqarish va boshqarish texnologiyalarida aks etadi.

Korxonaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni keng ma'noda tashqi muhitning iqtisodiy ehtiyojlari bilan uyg'un harakatlarda bo'lsa va unga mos kelsagina u bozorda muvaffaqiyatli ishlab boshlaydi.

3.2. Qarshi shahar “Davlat Ochilov” xususiy savdo korxonasi faoliyatining iqtisodiy taxlili

Bozor munosabatlariga o'tishni amalga oshirib borish demokratik o'zgarishlar uchun mustahkam iqtisodiy zamin hozirlaydi, respublikani taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga olib chiqadi. Uning xalqaro miqyosidagi obro'sini mustahkamlaydi. Bozor iqtisodiyotida bosqichma-bosqich va o'tishni hisobga olgan holda korxonalari faoliyatining kelgusi davrlaridagi vazifalari, ilmiy nazariyalardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Erkin iqtisodiyot tizimida savdoni boshqarish savdo korxonalarining iqtisodiy ko'rsatgichlarini, ya'ni tovar aylanishini rejalashtirishida ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni aniqlash talab etiladi. Ichki savdoni asosiy xo'jalik yurituvchi sube'ktlari korxonalardir. “Savdo korxonalari” deb, qonunchilik darasida, o'z nizomidan kelib chiqqan holda iste'mol tovarlari va boshqa xo'jalik maxsulotlarining sotuvi bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs sifatidagi mustaqil sub'ektlar hisoblanadi.

Savdo korxonasining asosiy funksiyasi bu tovar shaklidagi bahoning pul shaklida almashinuvi bilan tavsiflanuvchi xalq iste'moli tovarlarining savdosidir. Savdo korxonasi o'z funksiyasini amalga oshirish uchun ko'pgina qo'shimcha funksiyalarni bajaradi. Bular, masalan, xaridorlar talabini o'rganish, tovarlarni ishlab chiqaruvchilardan iste'mol jarayoniga etkazib berishni tashkillashtirish, tovarlar saqlanishini ta'minlash, tovarlarni assortimentini O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini shakllantirish, savdo faoliyatida xaridorlarga qo'shimcha xizmatlar va amaliyotdan ma'lum bosqichda savdo korxonalari o'z faoliyatlarining asosiy maqsadi deb asoslangan deb asoslangan holda foydani ko'rib, daromad qilish deb biladilar. Asosiy va barcha boshqa maqsadlarga erishishi uchun savdo korxonalari xaridorlar talabiga, ularning ehtiyojini to'laroq, qondirishga va bu bilan aholining turmush farovonligini ta'minlashga e'tiborlarini qaratishlari kerak. Quyida faoliyati taxlil etiladigan Qarshi “Davlat Ochilov” xususiy savdo korxonasi shunday vazifani o'z oldiga maqsad qilib qo'yilgan.

Qarshi shahar “Davlat Ochilov” xususiy savdo korxonasi O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasida mustaqillik to'g'risida”gi, O'zbekiston

Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida”gi, qonunlarida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to'g'risi”dagi Nizomga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida ta'sis qilingan. Korxonani tuzishdan maqsad: axolining ehtiyojlarini tovarlar bilan qondirish, tovar, maxsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning turlarini kengaytirish, sifatini va shu asosida korxonani faoliyatini olib borish hamda foyda olishdan iborat:

Bu maqsadga erishishga firma quyidagi yo'nalishlar faoliyat olib boradi:

- xo'jalik mollarini sotish;
- elektr, gaz, suv o'lchagichlarni aholi va tashkilotlardan sotish va sotib olish;
- maishiy xizmat sohasiga oid xizmatlarni boshqarish;
- avtomobillar, kishloq xo'jalik texnikalari ehtiyot qismlarini sotib olish va sotish;
- neft maxsulotlarini sotish shahobchalarini tashkil etish;
- xo'jalik mollarini sotish;
- dillerlik xizmatini ko'rsatish;
- kanalizasiya, gaz va suv tarmoqlarini o'tkazish va komunal xizmat turlarini ko'rsatish;
- ulgurji va chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanish;
- tashqi iqtisodiy faoliyati, eksport opeerasiyalari bilan shug'ullanish;
- aholi va tashkilotlarida har xil turdagi pullik xizmatlar ko'rsatish;
- barter va konsignatsiya shartnomalari orqali faoliyani amalga oshirish;
- spirli, salqinichimliklar va tamaki maxsulotlarini sotish;
- aholida, korxonada va tashkilotlarda avtotransport xizmatini ko'rsatish;
- firmaga qarashli do'kon va savdo shahobchalarini ochish;
- umumiy ovqatlanish shaxobchalarini tashkil etish;

Firma faoliyati bundan kengroq bo'lishi lozim lekin qonunlarga zid kelmasa haqiqiy deb hisoblanadi va korxona bunga rioya qiladi. Korxona bunga rioya qiladi. Korxona aholi zich joylashgan joyda va transport yo'lida joylashgan bo'lib, bu iste'molchilar uchun qulaylik tug'diradi. Shunday qilib, Qarshi shahar “Davlat Ochilov”

xususiy savdo korxonasi iste'mol tovarlarini sotish orqali shahar aholisiga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Marketing konsepsiyasining asosiy maqsadi iste'molchilar ehtiyoji, hohish-istaklarini qondirish orqali foyda olishdan iboratdir. Savdo korxonasining tovar aylanmasi tovarlarini sotishdan tushgan pullik tushum hajmida o'z ifodasini topadi. Uning miqdori esa uyoki bu savdo korxonasining iste'mol bozorida tutgan o'rnini ko'rsatadi. Shundan ko'ra, biz jadvalda. "Davlat Ochilov" xususiy savdosi tovar aylanmasining holati bilan tanishamiz.

Qarshi shahar "Davlat Ochilov" xususiy savdo korxonasining tovar aylanmasi rejasini bajarilishida umumiy baho berish uchun quyidagi 3.1 jadvalga e'tibor qaratamiz.

3.1-jadval

2010-2011 yillar Qarshi shahar "Davlat Ochilov" xususiy savdo korxonasi holatining taxlili.

ko'rsatkichlar	O'tgan yilgi xisobot 2010 yil	Hisobot yili 2011yil		O'tgan yilga nisbatan		Haqiqatda o'tgan yilga nisbatan		Haqiqatda rejaga nisbatan	
Tovar aylanmasi	7012	8778	8023	1768	5.1	-1011	4.3	-755	9.4
Shu jumladan naqt pulda sotilgan tovarlar	6593	7954	7201	1361	0.6	-608	4.5	-753	8.5
Kreditga berilgan tovar	119	624	606	505	84.4	-487	39.5	18	2.9
Mayda ulgurjiga jo'natilgan tovar	300	200	216	-100	-16.7	84	30.5	-11	2.5

Hisobot davrida firma tovar aylanmasi rejasini 90,6% ga bajarib, rejadagi 8778 ming so'm o'rniga, hisobot davrida 8023 ming so'mlik tovarlar sotdi. Bu esa rejadalidan 755 ming so'm kam bo'lib, 9,4 foizni tashkil etadi. Tovar aylanmasi rejasini bajarilmaganligi natijasida aholiga tovarlarni naqd pulga, kreditga sotish va mayda ulgurji jo'natilgan tovarlar bo'yicha ham rejalar bajarilmagan. Bu erda shuni aytish mumkinki, rejalashtirish yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi sababli tovar aylanmasi rejasi bajarilmagan. O'tgan yilgi hisobot rejasida ham tovar aylanmasi rejasi bajarilmaganligiga qaramasdan firma direktori tomonidan bu yilgi tovar aylanmasi rejasi oshirilib yuborilgan. O'tkazilgan taxlili bu firmaning ishini, faoliyatini rejadagidek amalga oshirilmaganligidan dalolat beradi. Firma xodimlari tovar aylanmasi rejasini bajarish uchun savdo maydonlaridan yanada to'laroq foydalanish chora-tadbirlarini o'rganishi, xaridorlarga xizmat ko'rsatishning ilg'or shakllarini qo'llashi va mehnat unumdorligini berolgan oshirishlari zarur.

Xodimlarning sotib olish imkoniyati, sotib olayotganda tovar turlari, sifat darajalarini ham hisobga olib, reja tuzishda bu kabi omillarda alohida e'tibor berish lozim. Savdo korxonasining rejaga olmasligiga asosiy sabab, bu xaridorlar talabiga binoan tovar assortimentini olib, kelinmaganligidir. Natijada tovar aylanmasi tezligi sekinlashib tovarlar savdoda turib qolgan, ya'ni uzoq vaqt tovarlar sotilmay qolishiga sabab bo'lgan. Oxir-oqibatda tovar sotilishi rejadagi miqdordan kamaygan. Rejani bajarilmasdigi yana bir muhim omil tovarlar narxining yuqoriligidir. Aholi narxlarga qoniqish qilmagan va tovarlarni sotib olinmagan.

Korxona raqobatbardoshligini baholash uchun avvalo uning holatini taxlil etmoq zarurdir. Taxlilni tizimli yondashish bilan o'tkazilganda taxlil sifati yuqori bo'ladi, shunda taxlilini tizimli deb atasa bo'ladi.

Qarshi shahar "Davlat Ochilov" xususiy savdo korxonasining muomala harajatlari rejasining bajarilishi taxlili 3.2-jadvalda keltirilgan.

3.2-jadval

**(2010-2011 yillarda Qarshi shahar “Davlat Ochilov” xususiy savdo korxonasida
muomala xarajatlari rejasining bajarilishi taxlili ming so'm).**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilgi2010	Joriy yil 2011 yil			Farqi		O'tgan yilga nisbatan joriy yilda
		Reja	Haqiqat da	%da	Reja ga nisba tan	O't gan yilga	
Tovar aylanmasi	7012	8778	8023	91.4	-755	1011	114.4
Muomala xarajatlari	250	270	275	101.9	5	25	110
Muomala xarajatlarining % ko'rinishi	3.50	3.8	3.43	111.3	0.35	0.14	-

Yuqoridagi 3.2-jadval ko'rsatkichlaridan ma'lumki, tovar aylanmasi hajmi hisobida o'tgan yilda nisbatan 1011 ming so'mga oshirish rejaga nisbatan esa 755 ming so'mga bajarilmagan. Muomala harajatlari summasi esa rejaga nisbatan 5 ming so'm ko'paygan. Shu ko'rsatkich esa o'tgan yilgi holatga nisbatan 25 ming so'mga ko'paygan. Muomala harajatlarining o'rtacha darajas i o'tgan yilga nisbatan 0,14 foizda, rejaga nisbatan 0.35 foizga ortgan.

Muomila harajatlarining ko'paytiriga nisbatan ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

- tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi, tovar aylanmasi hajmining 91.4 % ga bajarilganligi hisobiga muomila xarajatlari summasi 170 ming so'mga kamaygan.
- muomila xarajatlari darajasining o'zgarishi, tovarlar o'rtacha darajasining rejaga nisbatan 0, 35 foizi ko'payishi esa nomaga harajatlarining 5 ming so'mga ko'payishiga olib kelgan.

Ikkala omil yig'indisi umuman muomala harajatlari summasi farqini beradi. Taxlilining asosiy vazifalaridan biri taxlil qilish davrida yalpi daromadi hajmi bo'yicha rejaning bajarilishini, yalpi daromad o'zgarishinng hajmi tovar salmog'i o'zgarishning ta'sirini sotilgan tovarlarining assortiment va sifatining o'zgarishini hamda o'rtacha yalpi daromad darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishi va uni omillari aniqlanadi.

3.3-jadvalda Qarshi shahar “Davlat Ochilov” xususiy savdo korxonasiinning yalpi daromad hajmi bo'yicha reja bajarilishini taxlil qilamiz. 3.3 jadvaldan ko'rinib turibdiki, ya'ni daromadning mutloq miqdori hisobot yiliga nisbatan 28 ming so'mga kamaygan.

2011 yilda Qarshi shahar “Davlat Ochilov” xususiy savdo korxonasining yalpi daromad hajmi bo'yicha rejani bajarilishining taxlili.

Ko`rsatgichlar	Reja bo`yicha	Haqiqatda	Farqi	Rejaning bajarilishi
Yalpi daromad Ming so`m	458	430	-28	94.2
Tovar aylanishi ming so`m	8778	8023	-755	92.1
O`rtacha yalpi daromad darajasi %	522	546	0.24	-

Yalpi daromad hajmining kamayishiga tovar aylanmasi hajmining rejaga nisbatan 755 so'mga kamayishi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tovar aylanmasi hajmining kamayishi yalpi daromad miqdorining 39, 42 ming so'mga kamayishiga olib keladi, haqiqatda o'rtacha yalpi daromad summasining mutloq farqini beradi. Tovar aylanmasining bajarilishi mavjud tovar fondlariga bog'liq bo'lib qolmasdan, savdo korxonalarining ishchi kuch bilan ta'minlanganligiga va mehnat unumdorligiga ham bog'liqdir. Savdo hodimlari korxona mehnat resurslarining bir qismini tashkil etadi va mehnat unumdorligining o'sishi iqtisodiyotga muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat unumdorligining oshishi o'z navbatida muomila darajasiga bo'lgan tovar zahiralarining aniqlanish vaqtining qisqarishiga muomila harajatlarini kamaytirishga, rentabillik darajasining oshishiga va natijada korxonaning samaradorlik darajasini oshirishga olib keladi.

Qarshi shahar “Davlat Ochilov” xususiy korxonasining hisobot ma'lumotlari keladigan tovar aylanmasi hisoblanadi hamda bir sotuvchi to'g'ri keladigan tovar aylanadigan hajmi bilan belgilanadi.

3.4 – jadval

2011 yilda Karshi shahar “davlat Ochilov” xususiy savdo korxonasining mehnat unumdorligining reja bajarilish taxlili.

Ko'rsatkichlar Reja bo'yicha	Haqiqatda	Farqi	
		Mutloq	Foizda
Tovar aylanmasi	8023	-755	
8778		118	
Savdo xodimlari soni			
120	63		- 2
1,03	0,2		
Sotuvchilar	50,3		
sotuvchilarning	-		-
savdo xodimlari	-		
ichidagi foiz 64			
1ta savdo xodimiga			
to'g'ri kela-	53,8		
Digan mehnat			
unumdorligi			
(so'm)			
7855	7116		
-739	0,5		

3.4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, xisobot davrida bir hodimga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi rejaga nisbitan 739 ming so'mga kam yoki 94,5 foizga bajarigan. Mehnat unumdorligining kamayishiga firma hodimlarining malakasi, ularning

mehnatga bo'lgan munosabati tovarlar tuzilishini o'rganish kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Sotuvchilar sonining bir kishiga kamayishi tovar aylanmasi hajmining 9435 so'mga kamayishiga olib keladi. Mehnat unumdorligini rejaga nisbatan 417 so'mga kamayishi tovar aylanmasining 262,7 ming so'mga kamayishiga olib kelgan. Savdo firmasi ish unumdorligining rivojlanishi uning foyda manbalarini kengaytirishga tovar aylanmasi hajmini yuksaltirish bilan birga ishchilar sonini qisqartirishga, ya'ni me'yor holiga keltirishga intilishi zarurdir. Bunday hollar firmalarining saqlanmasligini, hodimlarning qisqartirilishini, mehnatni to'g'ri tashkil etishi, ishchi xizmatchilarning oylik maoshlarini oshirishni ta'minlaydi. Demak, savdo firmasini yuksaltirishga avvalo tovar aylanmasini va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni rivojlantirish bilan birga ulgurji baza funksiyasini qayta ko'rib chiqish yoki ularning sonini kamaytirish, aholi talabini chuqur o'rganish, savdo firmalari bilan mustaqil xo'jalik shartnomalari asosida tovar aylanmasini tashkil etish lozim.

Umuman olganda korxona imkoniyatlari juda katta. Buning uchun korxona faoliyatida marketing elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3.4. Korxona rejasining bo'limlari va ko'rsatgichlari

Korxona faoliyati ko'p qirralik bo'lib, uni rivojlantirish rejasi bir qancha bo'limlardan, bo'limlar esa ko'rsatgichlar tizimidan iborat bo'ladi.

Uzoq muddatli rejada korxonada yangi bo'lim seh, filiallar kabilarni taxlil qilish, ishlab chiqarishni quvvatini oshirish, kapital mablag'lar, moliyaviy vositalarga bo'lgan tadab, ilmiy tadqiqot ishlari, bozor sigmenti, korxonani bozordagi hissasini kengaytirish, maxsulotni raqobatbardoshligi. Korxona byudjeti balansi kabi moslanmalar echimi va ularga mos reja bo'limlari aks topadi.

Qisqa muddatli rejalar ishlab chiqarish va sotish hajmi, zaxiralarni siljishi, xom ashyo va qo'shimcha materiallar va ajratmalar, daromad, foyda va rentabillik, kredit,

kapital mablag'lar, ilmiy tadqiqot ishlari, korxona byudjeti, tabiatini muxofaza qilish kabi, bo'limlardan iborat bo'ladi.

Har bir bo'lim mohiyati, statistik o'lchov birligiga mos ko'rsatkichlar orqali o'z ifodasini topadi. Ular sonli va sifat hajmiy va solishtirma kabi ko'rsatkichlardan iborat.

Sonli ko'rsatkichlar absolyut miqdorda ifodalanib, ishlab chiqarish hajmini ishchilar soni ish haqqi fondi, daromad hajmi, foyda summasi kabilar ifodalaydi.

Sifat ko'rsatkichlari nisbiy miqdorlarda hisoblanadi va korxona faoliyatining samaradorligi o'lchov birligi sifatida ko'proq ishlatiladi. Bu ko'rsatkichlar prosent, indeks, koeffisient kabilarda o'z aksini topadi.

Hajmiy ko'rsatkichlar asosan ishlab chiqarish hajmini, ayrim ko'rsatkichlarni absolyut miqdorini ifodalaydi (zaxiralar miqdori, ishlab chiqarish hajmi, resurslar summasi).

Solishtirma ko'rsatkichlar nisbiy miqdorlarda o'lchanib solishtirma og'irlikni, solishtirma birlikni ko'rsatadi. Masalan; ishlab chiqarishni umumiy hajmiga maxsulotni bir turi xissasi, umumiy ishchi-haizmatchilar ichida ishchilarni hissasi kabilar. Barcha ko'rsatkichlar natural va qiymat miqdorda hisobga olinadi. Ayrim turdagi korxonalar faoliyatining ko'rsatkichlarini keltiramiz.

Ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish hajmi-yalpi maxsulot, tovar maxsuloti va sotuvchi maxsuloti. Ularning assortimenti kabi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi. Bu ko'rsatkichlar natural miqdorlarda hisoblanadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish quvvati, ya'ni korxonaning sutkada, oyda, kvartalda, yilda mavjud eihozlarni maksimal ishlatgan holda ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan maxsulotning miqdori, natural ko'rsatkichlardagi ishchi-xizmatchilarning umumiy soni, tarkibi, ish haqi fondi.

Xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, elektrenergiya, jihozlariga ehtiyoj hajmi, soni natural va qiymat ko'rsatkichlarda.

Tannarx hamda sex, umum ishlab chiqarish xarajatlarining summasi. Har xil ajratmalar va to'lovlar. Daromad va foyda, rentabillik ko'rsatkichlari.

Aylanma mablag'larni normativlari va ishlatilish ko'rsatkichlari.

Asosiy fondlar va amortizasiya ko'rsatkichlari.

Kapital mablag'lar va uning tarkibi.

Avtotransport korxonalarida: yuk tashish (tonnada); shu jumladan, yuk bilan (km); avtomobillarni hisob soni, avtomobillarni umumiy yuk ko'tarish quvvati (tn), naryadda bo'lgan umumiy vaqti (soat), shu jumladan, yuk bilan (soat), marshrutda yurib kelganlik soni (marotaba), texnik tezligi (km/soat), ekspluatasion tezligi (km/soat), mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarni ishlatish bilan bog'liq ko'rsatkichlari ishlab chiqarish korxonalari ko'rsatkichlariga o'xshaydi. Savdo korxonalarida tovar aylanishi hajmi assortimenti (so'm), tovar zaxiralari hajmi va assortimenti (so'm) tovarlarni kelishi hajmi va assortimenti (so'm). Bu uchala ko'rsatkichlarni assortiment bo'yicha miqdori natural ko'rsatkichlarda hisobga olinadi, taxlil qilinadi va rejalashtiriladi.

Muomila harajatlari summasi, tarkibi moddalar bo'yicha %.

Mehnat va ish haqi ko'rsatkichlari.

Daromad, foyda va rentabillik ko'rsatkichlari.

Asosiy va aylanma fondlarni ishlatish bilan bog'liq ko'rsatkichlar, kredit, soliq va to'lovlar, kredit, soliq va tovarlar bilan bog'liq ko'rsatkichlar kabilar.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi.

Har qanday jamiyatda ham ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratadi. Shu sababli ham, iqtisodiyotning erkinlashtirishi sharoitida ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish jiddiy masalalardan biridir. Hozirgi paytda ko'pgina resurslar chegaralangan, ularning aksariyati horijdan keltiriladi. Shuning uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, milliy va xorijiy sarmoyalarni ustivor sohalarga foydalanish kabi samaradorligini oshirish vositalariga etarli darajada e'tibor talab etiladi.

“Samaradorlik” so'zi natija degan ma'noni beradi. Korxonalar iqtisodiyotiga bag'ishlangan aksariyat adabiyotlarda ishlab chiqarishning faqatgina iqtisodiy samaradorligi haqida so'z ketadi. Horijiy mamlakatda, ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar kishilarning e'tiborini jalb qilmoqda va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni

o'rganish va ularga baho berish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarishning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samaradorligini o'rganish juda muhimdir. Ular o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini taqozo etadigan kategoriyalardir. Samaradorlikning umumiy holati, jumladan, ijtimoiy-samaradorlikning aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy- iqtisodiy samaradorlik-chegaralangan resurslardan oqilona foydalangan holda erishilgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy iste'mol darajasini yuksaltirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning qondirilishi-inson kamolotining yuksalishi, moddiy va ijtimoiy samaradorligining o'sishi, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlanishida ko'rinadi. Inson farovonligi hamda kamoloti naqadar yuksalsa shu qadar yuqori shu qadar, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishgan bo'ladi.

Iqtisodiy samara ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan iqtisodiy ne'matlar hajmi bilan ifodalanadi. Iqtisodiy samaradorlikning mezonini harajatlar bilan erishilgan iqtisodiy ne'matlar munosabatlardir. Ishlab chiqarish jarayonida omillar xarajat qilinadi va uning natijasida ma'lum miqdordagi ne'matlar yaratiladi. Harajat bilan natijani taqqoslash orqali iqtisodiy samaradorlik ifodalanadi.

Ishlab chiqarishning natijasi ijtimoiy samaradorlik murakkab kategoriyadir. Unda ishlab chiqarish natijalarida hamda harajatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar mujassamlashtirilgan. Unda ishlab chiqarish natijalarining o'sishi, maxsulot sifatining yaxshilanishi hamda mahsulot assortimenti tuzilishining ijtimoiy ehtiyojlarni tuzilishida to'g'ri kelishida o'zining aksini topadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi o'sishining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maxsulot sifati va tarkibining yaxshilanishi;
- jonli mehnat unumdorligining o'sishi;
- material sarfining kamayishi;
- fond samarasining o'sishi.

Yuqoridagilardan shuni anglash lozimki, ishlab chiqarish samaradorligini o'lchash uchun ko'rsatkichlar tizimi zarur.

Bu ko'rsatkichlardan eng muhimi ijtimoiy mehnat unumdorligidir. U vaqtni qonunining amal qilinishini ifodalanadi. Bu ko'rsatkichni quyidagi usulda aniqlash mumkin:

$$IMU=MD$$

JM

Bunda:

IMU- ijtimoiy mehnat unumdorligidir;

MD-milliy daromad;

JM- moddiy ishlab chiqarish sohasida bandkik bulgan ishchilarning urtacha conl.

Milliy daromad iqtisodiyotning eng muhim ko'rsatkichi samaradorlik mezoni, jamiyat boyligini to'laroq tavsiflovchi iqtisodiy vositadir. U mamlakat xalqini farovonligini va barqaror rivojlanishining moddiy manbaidir. Shuning uchun ham uni oshirishning barcha vositalari va yo'llari ishga solinadi.

Milliy daromad-moddiy ishlab chiqarishning tarmoqlarida yaratilgan qiymatidir. U yalpi ijtimoiy maxsulotning bir qismidir. Aniqroq aytganda u yalpi ijtimoiy maxsulot qiymatidan ishlab chiqarish jarayonida sarflangan xom-ashyo, yonilg'i, energiya va boshqa ishlab chiqarish vositalari qiymatini chiqorishdan keyin qolgan qiymatidir. O'z navbatida, moddiy ishlab chiqarishning alohida-alohida tarmoqlarida yalpi maxsulot qiymatidan moddiy ishlab chiqarish harajatlarini ayirib tashlash yo'li bilan sof maxsulot aniqlanadi.

Samaradorlikni tashkil etuvchi omillar va uni ifodalovchi konkret ko'rsatkichlar bilan bir qatorda murakkab umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni ham qo'llash haqidagi masala qo'yilmoqda.

Fan va texnikaning shiddatli rivojlanayotgan hozirgi sharoitda zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini amaliyotga kiritib iqtisodiy samara bilan bir qatorda og'ir jismoniy mehnatni mashinalar mehnati bilan almashtirish, ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalliklarini bartaraf etish, fondlar va energiya bilan ta'minlanishi darajasini oshirish, yuqori malaka talab qiladigan va manfaatdorligini oshirish, yuqori malaka talab qiladigan va manfaatdorligini oshiradigan jozibali

kasblarga talabni paydo qilish hamda mavjud kasblarga yoshlarda rag'bat uyg'otish va boshqa ijtimoiy muammalarni hal qilishi lozim.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligini oshirishni ifodalovchi bir qancha ko'rsatkichlar mavjud, jumladan (ish xizmat)larda talabning qondirilishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, mehnat sharoiti va tabiatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Mahsulotlarga iste'molchilar talabining qondirilishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarda quyidagilarni keltirish mumkin:

- mahsulotlar tarkibining iste'molchilar talabiga mos kelish koeffisienti. Bu ko'rsatkich tovar zahiralarida turib qolgan tovarlarning hissasi ko'rinishida tavsiflanadi. Bu ko'rsatkichning o'sishi ijtimoiy samaraning pasayayotganidan darak beradi. Erkin iqtisodiyot sharoitida mahsulotning sifati va uning iste'molchi talabiga mos kelishi uchun kurash korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

- reklama vositasida matbuotlarning mavjud turlari bilan iste'molchilarni tanishtirish darajasi. Hozirgi paytda xaridorni tovarlarning xususiyatlari, sifatiga va boshqa afzallaklari ko'proq qiziqtiradi. Bu masalalarda esa unda reklama yordam beradi. Uning mahsulotni iste'molchilarga tanishtirish darajasini o'rganishda turli shakldagi reklamalardan foydalanishi korxonalar hissasini aniqlash kerak bo'ladi:

- iste'mol savatchasi darajasida iste'molni ta'minlash koeffisienti va boshqalar.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar asosida o'rin egallaydi. Ular asosan, quyidagilardan iborat:

- mehnatni mexanizasiyalash va avtomatlashtirish darajasi;

- mehnat jarayonlarini rag'batlantirish darajasi;

- ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan texnologiyalar, asbob uskunalar va mexanizasiyalarning ilg'orlik darajasi;

- mehnatni elektrlashtirish darajasi;

- isitish, sovitish, yuklash-tushirish, ko'rsatish-yuklash uskunalar va boshqa asboblarni haqiqiy ta'minlanishning me'yorlarga mosligi darajasi;

- bino va inshootlarning davr talablariga javob berish darajasi;

-o'ralgan qadoqlangan va idishlarga solingan mahsulotlarning ishlab chiqarilgan hajmi mahsulolardagi hissassi;

Ishlab chiqarish samaradorligining oshiruvchi yana bir muhim omil bu-tejamkorlik rejimi hisoblanadi. Resurlarni tejash yonilg'i, energiya, xom ashyo va materiallarga bo'lgan o'sib boruvchi talabni qondirishning asosiy manbaiga aylanishi lozim. Bu muammolarni echishda sanoat asosiy o'rinni egallaydi. Bu tarmoqda xom ashyo va yonilg'i energetik resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan mashina va uskunalarni joriy qilish lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda milliy daromad belgiga hisoblanganda boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yonilg'i, elektro energiya, metallar sezilarli darajada ko'p sarflanayapti. Bu esa katta hajmdagi ishlab chiqarishni tashkil etishda resurslarni taqchilligiga olib keladi. Shuning uchun mamlakat mashinasozligini tubdan zamonaviylashtirish zarur. Bu esa fan texnika taraqqiyoti negizida butun xalq xo'jaligini rekonstruksiya qilishning muhim shartidir. Bunda erishishga qaratilgan uzoq muddatli, strategik maqsadlar aholining zaruriy ehtiyojlarini to'laroq qondirish bilan shug'ullanmog'i lozim.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining oshishi ko'p hollarda asosiy fondlardan yaxshiroq foydalanishga bog'liq bo'ladi. Mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish, uskunalarni maxsulot darajada ish bilan ta'minlash, uning smenaligini keskinoshirish va shu asosda har bir uskuna birligiga va har bir metr kvadrat ishlab chiqarish maydonida to'g'ri keladigan maxsulot miqdorini oshirish zarur.

Ishlab chiqarishni intensivlashtiruvchi va uning samaradorligini takomillashtirishni takomillashtirish. Fan-texnika taraqqiyotini ta'minlaydigan va ijtimoiy muammolarni samarali hal qiladigan tarmoqlarni nisbatan yuqori darajada rivojlantirish zarur.

Investision siyosat quyilmalar samaradorligini oishrishni ta'minlashga qaratilgan. Mablag'larning fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirishni ta'minlovchi tarmoqlar foydasiga qayta taqsimlash lozim. Mablag'larning katta qismi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashda va rekonstruksiya qilishda yo'naltirishi kerak.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni tarkibiy qayta guruh uni kuyidagilarni amalga oshirish lozim: xalq iste'mol tovarlari va barcha turdagi xizmatlar ishlab chiqarishning tezkor oshirishni ta'minlash, kichik korxonalarni rivojlantirish, harbiy ishlab chiqarishni konversiyalash, ishlab chiqarish korxonalarini texnik qayta jihozlash, transport, elektr, neft va gaz ta'minotini hamda aloqa va axborot ta'minotini yaxshilash.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy o'rinlardan birini (boshqaruvni o'z ichiga oluvchi) tashkiliy iqtisodiy omillar egallaydi. Ijtimoiy ishlab chiqarish masshtabining o'sishi va xo'jalik aloqalarining murakkablashishi bilan uning roli ortib boradi. Eng avvalo, bu ishlab chiqarishning rasional shakllarini rivojlantirish va takomillashtirish zarur. Ijtimoiy ishlab chiqarish infrastrukturasini ham ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Uni rivojlantirish talab qilinadi. Bu boshqarish, rivojlantirish, barcha mexanizmlarini iqtisodiy rag'batlantirishning usullari va u shakllarini takomillashtirishda-rejalarni balandlashganligi va haqqoniyligi, xalq xo'jaligining quyi bo'g'inlariga to'sqinlik qilmasdan, faoliyati uchun imkoniyatlar yaratiladigan rejali ko'rsatkichlarning optimal tuzilgan tizimini fratsishni taqozo qiladi. Ushbu omillar tizimida kuyidagilar ham kiradi: tijorat hisobi va moddiy rag'batlantirish dastaklari, moddiy javobgarlik va boshqa iqtisodiy rag'batlarning keng qo'llanilishi.

Samarali xo'jalik muammosini hal qilishda resurslarni tejashdan texnika va texnologiyalarni yaratish hamda uni amaliyotda joriy qilishda asosiy o'rinlardan birini fan o'ynaydi. Fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirishning dolzarb muammolari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borishni kuchaytirish lozim. Bu esa ishlab chiqarishning mehnat, material va energiya sig'imini amaytiradi hamda maxsulotsifatining oshirishga oilb keladi. Erkin bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi barcha omillarning ta'sir imkoniyati sezilarli o'zgaradi.

Korxonalarining asosiy belgisi-ularning o'zlariga tegishli mulkning mavjudligidir. Aynan shu narsa korxonalarining moddiy texnik imkoniyatlarini belgilab beradi hamda ularning iqtisodiy erkinligi va kelajagini ta'minlaydi. Muayyan mulkdan foydalanmasdan hech bir korxona o'zining xo'jalik faoliyatini amalga oshira olmaydi.

Korxonalar egalik qiladigan mulk ko'chmas va ko'chirib bo'ladigan mulklarga ajraladi.

3.4. Korxonani zarar ko'rsatmay barqaror faoliyat yuritishni ta'minlash usullarni ishlab chiqish

Korxona faoliyat yuritayotganda ko'pgina kutilmagan hodisalarga duch kelishi mumkin. Vaziyatni to'g'ri baholash, kutilgan holatlar, har tomonlama ko'ra bilish, moliya investisiyalar, marketing, mehnatga oid munosabatlar texnika va texnologiya sohasida o'z vaqtida va asosli qarorlar qabul qilish-bozorda korxonaning barqaror holatini saqlashning shartlari ana shulardan iborat.

Ba'zida bittagina noto'g'ri qaror turgan bo'lib ko'ringan korxonani bankrotlik yoqasida olib kelib qo'yishi mumkin. Barcha qabul qilinadigan qarorlar uchun tayyor andozalarni taklif etish mumkin emas. Biroq shunday muammalar ham borki, ularni hal qilish, korxonaning to'lovga qobilligi va zarar ko'rmay ishlashida ta'sir ko'rsatishi turgan gap. Bunda ishlab chiqarishning maqbul hajmini va korxonaning rivojlantirishning maqsadga muvofiq sur'atlarni tanlash haqida so'z bermoqda.

Mahsulotning yangi turini o'zlashtirishda ishlab chiqarishning eng kam miqdorini aniqlash zarurati tug'iladi. Bunday kam hajmdagi mahsulot ishlab chiqarish faqat zarar keltiradi. Korxonada biror sabablao (talabning kamayishi, xom ashyo va

butlovchi qismlarni etkizib berishining qisqarishi maxsulotni yangiga almashtirish) ga ko'ra maxsulotni ishlab chiqarishni kamaytirishga majbur hollarda ham eng kam hajmini aniqlash lozim.

Ushbu vazifani bajarish uchun ishlab chiqarish va mahsulotni sotishning barcha harajatlarga ajratish kerak.

Harajatlarni ishlab chiqarishda bevosita munosib ravishda bog'liqdir. Mahsulot birligi tannarxida bunday harajatlarning muayyan miqdorining aniqlash mumkin va ularda asosiy materiallar, xarid qilinadigan butlovchi buyumlar, xarid qilinadigan butlovchi buyumlar, mahsus asboblarni va texnologiya energiyasi, asosiy ishchilarning ish haqi, ishchi transport va boshqalarning harajatlarning harajatlari kiradi. Doimiy harajatlarni ishlab chiqarish hajmining ba'zi oraliqdagi o'zgarishida ham saqlanib qoladi. Bunda ko'rib chiqilayotgan oraliqda texnologiya, ishlab chiqarishni taxlil etish, ishchilarning tarkibi, ishlab chiqarishni boshqarish tizimi deyarli o'zgarmay qoladi. Asosan mazkur maxsulotni ishlab chiqaradigan usullarini band etish o'zgaradi. Doimiy harajatlarda amortizatsiya ajratmalari, boshqaruv ta'mirlash harajatlari ijara haqi, kredit uchun foizlar va boshqalar kiradi. Bunda yana tannarxga kiritiladigan ko'pgina soliqlarni, masalan mol-mulk solig'i, er solig'ini ham kiritish mumkin.

Mahsulot sotishdan tushgan sof foyda, sotishdan kelgan sof tushum (soliqlarsiz) bilan maxsulot ishlab chiqarishning barcha harajatlari ayirmasiga teng:

$$F=T-X$$

Bunda:

F- sotiladigan maxsulotdan kelgan sof foyda;

T- sotishdan kelgan sof tushum (soliqlar chegirilganda);

X- mahsulot ishlab chiqarishning barcha harajatlari;

Agar ishlab chiqarish (sotish) hajmini o'zgarishining ko'rib chiqilayotgan oraliqiga mahsulot birligi narxi va avvalgi darajada qolsa, tushum ishlab chiqarishning umumiy hajmiga natijasi ifodasiga to'g'ri munosib bo'ladi.

$$T=p \cdot Q,$$

Bunda:

p- buyum (maxsulot birligi) narxi;

Q-ishlab chiqarish (sotishning) natura ko'rinishidagi hajmi.

Barcha harajatlar o'zgaruvchan va doimiy harajatlar tashkil topadi.

$$X=O'Q+S,$$

Bunda:

O'- bitta buyum uchun o'zgaruvchan harajatlar;

S- doimiy harajatlar;

Yozilgan formulani birlashtirib, foyda ifodasini yozamiz.

$$F=(P-O') -Q-S.$$

Ishlab chiqarishning eng kam hajmini aniqlayotganda foyda nolga teng bo'ladi. Yuqorida keltirilagn formulani $F=0$ bo'lganda ishlab chiqarishning eng kam hajmida va fodasini topami:

$$Q_{ek}=S$$

$$P-O'$$

G'arb mutaxassislar ishlab chiqarishning eng kam hajmini hisob-kitob qilayotganda shuningdek sotish natijasi tushunchasini ham qo'llaydi, u vaqtinchalik harajatlar chegirishgandagi sof foydaga teng bo'ladi.

$$C=T- O'Q = (P-o') Q,$$

Bunda:

C-sotish natijasi.

Ushbu holda foyda sotish natijasi eng muhim qiymatini beradi. Tadbirkorlik amaliyoti uchun ishlab chiqarishning yo'l qo'yishini mumkin bo'lgan eng kam hajmini aniqlash ham muhimdir, bunda maxsulot rentabilligi sof foydaning sotishdan kelgan tushunmiga tengdir.

$$R \quad F \quad (P-) \times Q-S$$

$$T \quad PQ$$

Bu bog'liqlikdan $R=RMP$, bo'lganda ishlab chiqarishning yo'l qo'yishni mumkin bo'lgan eng kam hajmini aniqlash uchun topamiz, bunda RMP-past maqbul rentabillik:

$$Q_{yq} = \frac{S}{(1-Rmp) \cdot xp - o'}$$

Ba'zi xorijiy mualliflar ishlab chiqarishning eng kam hajmini rentabillik chegarasi deb atashadi va uning hisob-kitobga korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan yondashadilar. Ishlab chiqarishni amaldagi hajmi bilan eng kam hajmi o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, korxonaning "moliyaviy mustahkamligi" ya'ni moliyaviy barqarorligi ham shunchalik yuqoridir. "Moliyaviy mustahkamlik zaxirasi» amaldagi tushum bilan ishlab chiqarishning eng kam hajmiga to'g'ri kelishi tushum orasidagi farq yoki bu farqning amaldagi tushumga nisbati sifatida hisoblanadi. "Moliyaviy mustahkamlik zahirasi" sotishdan kelgan tushumning korxona moliyaviy holatiga jiddiy xatar tug'dirmay qanchalik kamayishi muhimligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan bog'liqliklar ishlab chiqarishni o'rganishi foydaga qanday ta'sir qilishini ko'rish imkonini beradi. Ma'lum bo'lishicha ishlab chiqarish hajmini har qanday o'zgarishi foydaning yanada ko'proq o'zgarishiga olib keladi. Demak, agar korxona zaraa ko'rib ishlasa, ishlab chiqarish hajmi (tegishli ravishda tushum) bir foizga kamayganda zaraa bir necha foizga ko'payadi. Bu ishlab chiqarish yoki operatsiya richagi ta'siri (effekti) deb ataladi. Ishlab chiqarish rechagi-ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda doimiyharajatlarning foyda (zararga ta'siri) darajasidir.

Operasiya richagi-operatsiya hatarini o'lchovchi bo'lib, korxonaning doimiy operitsion harajatlari bilan shartlangan. Operasiya richagi sotilgan mahsulotdan kelgan tushumning o'zgarishiga bog'liq ravishda operatsiya foydasi (asosiy faoliyatdan tushgan foyda) qanday o'zgarishini ko'rsatadi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$OP = \%Fa \cdot f$$

% SiT

Bunda:

OR- operatsiya richagi; % FaF,SMT-tegishli ravishda foyda va tushumning nisbiy o'zgarishlari;

Ishlab chiqarish richagi tushum bir foizga o'zgarganda asosiy faoliyatdan tushgan (zarar) necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi. Tushum va o'zgaruvchan harajatlarning nisbiy o'zgarishlari mos kelganligi sababli, ya'ni $SMT \backslash SMT = o' \backslash o'$, ishlab chiqarish richagini hisoblash formulasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi;

$$OR = SMT - o' \\ \frac{\text{-----}}{FaF} = S + F \text{ a } F$$

Bunda T-sotishdan kelgan tushum; o'-ishlab chiqarishning butun hajmidagi butun hajmidagi o'zgaruvchan harajatlari; S-harajatlari, f-foyda solig'i to'langanga qadar foydasi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, operatsiya richagini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin;

$$OR = Q(P - U) \\ \text{-----}; \\ Q(P - Y) - F$$

Bunda, Q-sotilgan mahsulot hajmi dona; U- mahsulot birligiga o'zgaruvchan harajatlari, F-doimiy operatsiya harajatlari; F-doimiy operatsiya harajatlari; R-mahsulot birligi narxi.

Keltirilgan formuladan ko'rinib turibdiki, muayyan ishlab chiqarish hajmiga chiqimlar umumiy summasidagi doimiy harajatlarning salmog'i qanchalik ko'p bo'lsa va ishlab chiqarish richagi shunchalik yuqori bo'ladi, binobarin, ishlab chiqarish (richagi) qisqarganda, masalan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotga talab keskin kamayganda korxonani shunchalik katta xatar kutadi.

Doimiy katta chiqimlar qimmat turadigan ixtisoslashtirilgan va avtomatlashtirilgan uskunalari bilan jihozlangan korxonalarda yuz beradi. Bu nilikvid aktivlar bo'lib, ishlab chiqarishni kamaytirganda ularni talofatlarsiz qisqarish mumkin

emas. Shuning uchun doimiy harajatlar usushi qanchalik katta bo'lsa, tadbirkorlik hatari ham shunchalik katta bo'ladi. Yuqori ishlab chiqarish richagi bilan ishlashni faqat katta ishlab chiqarish va sotish hajmlarini ta'minlaydigan va istiqbolda o'z mahsulotida doimiy talab bo'lishiga qayta ishonadigan korxonalargina o'ziga teng ko'rishi mumkin.

O'z mablag'lari bilan bir qatorda qarz mablag'laridan ham foydalanadigan korxonalar faqat tadbirkorlik qatorini emas, balki moliyaviy qatorni ham boshidan kechadi. O'z mablag'lari ulushida korxona barcha aktivlarining 60-70 foiz mablag'lari ulushiga esa 30-40 foiz to'g'ri kelsa, katta daromad ta'minlanadi. deb hisoblanadi. Bunda sarmoya tarkibi ham sotuvlar hajmga bog'liq bo'ladi. Agar sotishlar hajmi muayyan darajada ortiq bo'lsa, qarz sarmoyasini jalb qilish ham maqsadga muvofiq va lozim bo'ladi. Qarz mablag'larini jalb qilish o'z sarmoyasining rentabilligini oshiradi, moliyaviy richag ta'siri shundan kelib chiqadi.

Moliyaviy richag-korxona tomonidan qarz mablag'laridan foydalanish mumkin bo'lgan moliyaviy hatarni o'lchash vositasidir. Moliyaviy richag sof foydaning o'zgarishi operatsiya foydasi o'zgarishiga bog'liqligini aks ettiradi.

$$MR = \% SF$$

$$\% OF$$

Bunda:

MR-moliyaviy richag,

SF-sof foyda,

OF-operatsiya foydasi.

Formulani quyidagi tarzda ko'rsatish ham mumkin:

$$MR = \frac{Q(P-U)-F}{Q(P-U)-F-I}$$

$$Q(P-U)-F-I$$

Bunda, I-dividentlarni to'lash bo'yicha harajatlar. Shu tariqa, moliyaviy richag operatsiya foydasi bir foizga o'zgarganida ko'rsatadi, ya'ni dividendlarning foyda o'zgarishiga ta'sirchanligini aks ettiradi.

Dividentning korxona umumiy aktivlaridagi qarz va mablag'lari ulushiga bog'liqligi ancha murakkabdir. Avvaliga qarz mablag'alarini ulushi ko'payishiga qarab dividendi oshib boradi. Bu barcha turdagi kreditlar uchun to'lovni summasi soliq olinginiga qadar foydadan undiriladi, bu esa korxonaning qarz resurslari nisbatan arzon bo'ladi. Biroq qarz mablag'lari miqdori ortgan sari qo'shimcha sarmoyani jalb qilgan uchun foiz stavkalari oshib boradi, bu esa korxonaning moliyaviy nobarqarorligi oshishi bilan bog'liqdir. Qarz sarmoyasini jalb qilishdan soliq ta'siri kamayadi, natijada hisoblanadigan dividend kamayadi. Katta moliyaviy qatorda sotishlar hajmining bir oz kamayishi bitta aksiya uchun dividendning bir necha barobar ko'p pasayishiga olib keladi, buning oqibatlari ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Sof foyda o'zgarishining doimiy operatsiya harajatlari va qarz sarmoyasiga foizlar bilan va izohlangan maxsulotni sotishdan kelgan tushumning o'z qarishiga umumiy bog'liqligini qo'rsatadi, quyidagi formula bilan aniqlanadi va ifodalanadi;

$$TX = Q(P - Y)$$

$$Q(P - Y) - F - I$$

$$TX = OP.MP$$

$$TX = 6.1,25 = 7,5.$$

Shu tariqa, biz korxona moliyaviy holatida ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ikki asosiy richagni ko'rdik. Bular:

- mahsulot tannarxi tarkibiga doimiy va o'zgaruvchan harajatlarning o'zaro maqbul nisbatini topish;

- o'zining va qarz mablag'lari, o'zaro nisbati nuqtai nazaridan sarmoyaning oqilona tarkibini tanlash, kredit taxlilining hatto eng oddiy qo'llash ham korxonani nochorligini oldini oladi va imkonini beradi.

Mahsulot birligi uchun sarflangan mablag' ishlab chiqarish harajatlari deyiladi. Harajatsiz qanday iqtisodiy faoliyat yuz bermaydi, uni qilmasdan turib foyda topish mumkin emas.

Iqtisodiyotga harajatlarning umumiy emas ularning samarasi muhim. Harajatlar samaradorligini to'liqroq ifodalash uchun qiymat va natural ko'rsatkichlarga umumlashgan tavsiya berish kerak bo'ladi. Bu maqsadlarga e'rishishda harajatlarning umumiy va qiyosiy, iqtisodiy harajatlarni amalga oshirishdan oldin investision loyihalarning bir nechta vaziyatni tuziladi va ular bir-biri bilan qiyoslanadi. Shu asosida optimal ko'rsatkich-eng kam keltirilgan harajatlar aniqlanadi.

4. Nazariy dars o'tish metodikasi

4.1.Kasb-hunar kollejlarda nazariy ta'lim berishning asoslari

Kasb-hunar ta'limi texnologiyasi tanlashni eng avval maqsadga qanday darajada bilim, ish harajat usullari va shaxsiy fazilatlarining qanday darajada bilim, ish harajat usullari va shaxsiy vazifalarning o'zgartirishni mablag' qilib olingan va aniq maqsadni ko'zlamagan mashg'ulot samara bermaydi. Chunki, olingan natija bilan ko'zlangan maqsadni bir-biriga qiyoslab, pedagogik jarayon samaradorligi aniqlanadi. Shuning uchun ham talabalar har bir o'tiladigan fanning nazariy asoslanganligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, iqtisodiyot sohasida tayyorlanadigan talabalar birinchi navbatda shu fanning nazariy asoslanganligi bilan belgilanadi. Yetarli darajada aniq bo'lmagan maqsadsiz mashg'ulot talabalarning ortiqcha hissiyotlarga berilishi, o'qish, bilish faoliyatida undovchi rag'batning pasayishi, o'quv

materiali, o'quv fani tanlangan hajmga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishga olib keladi. Nazariy dars o'quvchida quyidagi belgilarga e'tibor berilishi lozim:

1. Predmetlararo aloqadorlikni amalga oshirish har tomonlama mukammal bilimlar tuzilishi tarkib toptirish va rivojlantirishga asos bo'ladi.
2. Har bir darsning didaktik maqsadini ya'ni o'rganilgan material hajmi uni oldingi o'rganilgan bilimlar bilan aloqadorligiga e'tibor berish.
3. Yangi o'rganilayotgan yoki oldindan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar yangi qirralarini ochilishi va qiyinchilik darajasiga qarab mos ravishda ta'lim-tarbiya ishini tashkil etib borish.

4.2. Yillik taqvimiy mavzular rejasidan namuna

	Korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari
--	--

Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 45
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
<i>Ma'ruza rejas</i>	-Korxona iqtisodiy salohiyatining ishlab chiqarish barqarorligina ta'siri. -Korxonada mahsulot ishlab chiqarish va mahsulot tannarxi va moliyaviy ko'rsatkichlar

	tahlili. -Korxonani zarar ko'rmay barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash.
Mashg'ulotning maqsadi:	Korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish to'g'risida talabalarning bilimlarini shakllantirish
<i>Pedagogik vazifalar</i>	O'quv faoliyati natijalari.
– Korxona iqtisodiy salohiyatining ishlab chiqarish barqarorligiga ta'siri haqida aytib berish; – Korxonada mahsulot ishlab chiqarish va mahsulotga haq to'lash samaradorligini taxlil qilishni shakllantiradi; – Korxonada mahsulot sotish mahsulot tannarxi va moliya ko'rsatkichlari tahlil qilinadi; Korxona zarar ko'rmay barqaror faoliyati yutirishi haqida tushuncha berish.	– Korxona iqtisodiy salohiyatining ishlab chiqarish barqarorligiga ta'siri haqida aytib beradilar; – Korxonada mahsulot ishlab chiqarish va mahsulotga haq to'lash samaradorligini o'rganadilar; – Korxonada mahsulot sotish mahsulot tannarxi va moliya ko'rsatkichlarini tahlil qiladilar; – Korxonani zarar ko'rmay barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashni o'rganadilar;
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, aqliy hujum, bahs-munozara, namoyish etish
<i>O'qitish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, ma'ruza materiallari, kompyuter texnikasi, davra stolidan foydalanish.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Nazorat savollari.

“Korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini oshirish yo'llari mavzusida nazariy tenologik xaritasi”

Faoliyat bosqichlari	Faoliyatning mazmuni	
	O`qituvchi	talaba
1.Kirish bosqichi (10 minut)	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi, kutilajak natijalarini eslatadi. Mashg`ulotning o`tkazilish tartibini tushuntiradi. 1.2. Bahs munozara usullarini o'tkazish va baholash mezonlarini e'lon qiladi. 1.3. Har bir guruxda mavzu bo'yicha tarqatma materiallarini tarqatiladi. 1.3. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining rejasiga izoh beradi.	Eshitadi yozadilar. Mavzu nomini yozib oladilar. Tushunchalarni erkin fikr orqali bildiradi, faollashadi.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1.Mashg'ulotning asosiy vazifalarini echish uchun talabalar guruhlarida korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish to'g'risida fikrlarni ko'rib chiqish topshiriladi. 2.2. Bajarilgan ishga talabalar baho beradilar. 2.3. Korxonalarda mahsulot tannarxi va moliya ko'rsatkichlari to'g'risida tushunchalar beriladi. -Korxonani zarar ko'rmay barqaror faoliyat yuritishi to'g'risida tushuntiradi. Ma'ruza bahs-munozara usulidan foydalanilgan holda olib boriladi. 2.4. Tarqatmali materiallar beriladi.	Talabalar 2 guruhga bo'linadi va berilgan usullar bo'yicha ishlaydilar. Guruh boshliqlari ularni himoya qiladi. Mavzu bo'yicha har bir guruh munozara o'tkazadi.
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. O'tilgan mashg'ulot bo'yicha yakun yasaydi, ular qaerlarda kerak bo'lishi aytiladi.	Eshitadi.
	3.2.Guruhlar faoliyati tashkil qilinadi. 3.3. Uyga bajarib kelishi uchun vazifalar beriladi.	Eshitadi va yozib oladir

4.4. “Korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo’llari

Dars turi:	Nazariy mashg’ulot.
Dars uchun ajratilgan vaqt:	80 daqiqa
Dars o’tish joyi:	“Bahs-munozara usulidan foydalangan holda dars o’tishga mo’ljallangan xona
O’qish metodi:	Og’zaki, muammoli, munozarali usullar.
Darsning metodik ta’minoti:	O’quv uslubiy qo’llanmalar, saiolalar, audiovizual vositalar, dioprojektor elektron darsliklar.
Darsning maqsadi:	talabalarga korxonalarda takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo’llari to’g’risida bilimlarni shakllantirish
Darsning tarbiyaviy maqsadi:	mavzuni o’zlashtirish orqali talabalarda fan mohiyatini tushuntirish, kasbiy qiziqtirish malakalar oshirish
rivojlantiruvchi maqsadi:	Darsning talabalarni mavzu yuzasidan bilimni rivojlantirish fikrlarini oshirish.

Dars o'tish tartibi

Tashkiliy qism.

I.Talabalar bilan salomlashib ularning kayfiyatini, darsga tayyorlarligini nazorat qilish, xonaning darsga tayyorligini tekshirish, darsning asosiy qismi hisoblanadi. Yo'qlama qilib darsga ish vaziyatini vujudga keltirib, darsni muvaffaqiyatli boshlash lozim bo'ladi.

II.Oldingi o'tilgan mavzu yuzasidan uyga berilgan vaziyatlarni talabalardan turli metodlar yordamida ya'ni har bir reja bo'yicha savol javoblar, mavzu bo'yicha bahs-munozaralar o'zlashtirib, qisqa test o'tkazib va ularni bilim saviyasini aniqlash mumkin.

III.Yangi mavzuni va dars rejasida yozib, mavzu yuzasidan foydalanishda tavsiya qilinadigan darslik, adabiyotlar uslubiy va ko'rsatmali materiallar haqida ham o'tish mumkin.

IV.Yangi mavzuni tushuntirish tuzilgan dars rejasiga asoslanib olib boriladi. Dars jarayonida har bir rejani tushuntirib bo'lgandan so'ng reja bo'yicha bahs-munozara olib borish mavzuni mustahkamlashga talabalarni qiziqtirishga erkin muloqotlarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Dars bayoni

Harajatlar to'g'risida tushuncha va ularning tasnifi. Ishlab chiqarish korxonalari faoliyati moddiy va mehnat harajatlari bilan bog'liq. Harajatlarning asosiy hislatlari ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishning jami harajatlari mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi va unga qarab ishlab chiqarilayotgan mahsulot korxonaga qanchaga tushayotganini aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalarni mahsulotlarni sotish bilan bog'liq harajatlarni ham amalga oshiradi. Bunday harajatlar ishlab chiqarishi yoki tijorat haratlari ham deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq korxonalarning harajatlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan harajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr harajatlariga kiritiladigan harajatlar;
- korxona umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisobga olinadigan korxonaning moliyaviy faoliyati bo'yicha harajatlari;
- favqulotda zararlar;

mahsulot (ish xizmat) larning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi harajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy harajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tanlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash harajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta ajratmali;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizasiyasi;

Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish harajatlarning va eng yirik element-moddiy harajatlardir. Mahsulot (ish xizmat)ishlba chiqarish tannarxi tarkibida ularning hissasi 60-90 foizni tashkil etishi mumkin.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy harajatlarga quyidagilar tegishli bo'ladi:

- mahsulot tayyorlashda (ularni bajarishda xizmatlar ko'rsatish) zarar tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotiladigan hom-ashyo va materiallar;
- normal texnologiya jarayonini ta'minlash va mahsulotlarni o'rash mahsulot (ish, xizmat)lar yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar) materiallar shunigdek asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyoj qismlar, instrumentlar, inventarlar, priborlar, laboratoriya asbob-uskunalari va asosiy fondlarga kirmaydigan

boshqa mehnat vositalarinnig eskirishi, mahsus kiyim-bosh va boshqa arzon baho ashyolarning eskirishi;

- sotib olinadigan, kelgusida ushbu korxonada montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlar beriladigan butlovchi buyumlar va yarim mahsulotlar;

- tashqi yuridik va ijtimoiy shaxslar, shunigdek korxonaning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatining asosiy turiga tegishli turiga tegishli bo'lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar;

- tabiiy xom-ashyo ajratmalar, ixtiososlashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan erni rekultivasiya qilish ishlariga haq to'lash, sanoat korxonalari tomonidan suv xo'jaligi tizimda belgilangan limitlar darajasida va undan ortiq olinadigan suv uchun haq to'lash.

Sanoatning hom ashyo tarmoqlari uchun yog'och paxta materiallaridan yoki foydali qazilmalardan foydalanishga huquqlarning amortizasiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash harajatlari;

- texnologik maqsadlarga energiya barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga saflanadigan yonilg'ining chetdan olinadigan barcha turlari korxonaning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarish xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari;

- korxonaning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya;

- ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi;

- korxonani transporti va hodimlari tomonidan moddiy resurslarni etkazish bilan bog'liq harajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagi kiradi) ishlab chiqarish harajatlarning tegishli elementlariga kirishi kerakdir (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar)

Korxonalar tomonidan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilarga olingan idishlari ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi, qaytariladigan chiqitlar qiymati hamda idish va o'rash joylash materiallari qiymati

ularningamlda sotilishi foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarilib tashlanadi

“Moddiy xarajatlar” elementlari bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxida shu jumladan barter bitishuvlarida, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan tovar birjalari va xizmatlari qiymatidan shu jumladan brokerlik xizmati xizmatlaridan bojlar va yig'imlardan transportda tashishga haq to'lashdan tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi

Ishlab chiqarish xarajatlarining yirik elementlariga asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishidir. Qaysikim u amortizatsiya ajratmalari so'mmasiga tengdir. Unga asosiy fondlarning tezlashtirilgan amortizatsiyasi va uni indeksiyasiga ham kiradi.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari-bu korxonaning asosiy ishlab chiqarish xodimlariga mehnatga haq to'lash bilan bog'liqli xarajatlardir. Ularga quyidagilar kiradi:

- korxonada qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay rassenkalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib-chiqib,amalda bajarilgan ishlab chiqarish xususiyatiga egali bo'lgan ish uchun hisoblangan ish haqi, shu jumladan bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lov;

- kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar;
- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensasiya tusidagi to'lovlar (texnogen jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, dam olish va bayram kunlari ishlaganlik uchun tariff stavkalarini va okladlariga ustamalar va qo'shimcha haq, ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar, hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli ehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan

ushbu sharoitlarda ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan ushbu hsharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar va h.k);

- ishlanmagan vaqt uchun to'lov;
- korxona shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga, ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusdagi tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash;
- belgilangan tartibda muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarning boshqacha turlari.

Korxonaning ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari – bu ijtimoiy fondlarga (pensiya fondiga, Aholini ijtimoiy ta'minlash, ish bilan ta'minlashga ko'maklashish fondiga, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashiga) majburiy ajratmalardir.

Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflari tushuniladi: boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Korxonaning sotish xarajatlariga quydagilar kiradi.

- tovarlarni temir yo'l, havo, avtomobil, dengiz, daryoning transportida va otulovda tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganliklari uchun to'lagan jarima;

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari ishlari va xarajatlari (mehnatga haq to'lash xarajatlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, savdo reklamasi xarajatlari, tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni navlarga ajratish xarajatlari, tashish, saqlash va sotish chog'ida tovarlarning norma doirasida va undan ortiqcha yo'qotilishi, o'rash, joylash materiallari xarajatlari, mol-mulkni majburiy sug'urta qilish xarajatlari;

- sotish bozorlarini o'rganish bo'yicha belgilangan normativlar doirasida va undan ortiqcha xarajatlar.

Ma'ruzani bayon etishda talabalarga qiziqarli bo'lishi, tushunchalarini nazorat qilish uchun bahs-munozaraga chorlash va mavzuga oid savollar berish mumkin, ya'ni korxonalarda mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi qaysi elementlardan tashkil topganligi to'g'risida o'z fikringizni bildiring himoyalang. Guruhlarda mulohaza

bildiradi, har bir talaba o'z fikrini bildiradi va bir fikrga kelinib guruh sardori aniq javobni tanlab keyin savolga javob beradi.

IV. Yangi o'quv materiallarini mustahkamlash o'qituvchi talabalarni mavzu bo'yicha tushunmagan joylarini barcha savollariga javob beradi. Talabalar mavzu bo'yicha bilimlarini mustahkamlash uchun turli usullardan foydalanishi mumkin. Ayniqsa, o'tilgan mavzu bo'yicha bahs-munozara o'tkazish yaxshi natijani beradi. Keyingi darsda o'tiladigan mavzu e'lon qilinib mavzu bo'yicha qisqa tushunchalar beriladi.

V. Darsni yakunlash. Talabalarga dars yakunida uyga bajarib kelish uchun vazifa beriladi. Mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatini ta'kidlab o'tiladi. Talabalar bilan xayrlashib darsni yakunlashadi.

5. Amaliy mashg'ulot o'tkazish metodikasi.

5.1. Amaliy mashg'ulotga nisbatan qo'yiladigan talablar.

Amaliy mashg'ulot o'quv ishlarining mantiqiy davomi bo'lib, talabalarning mustaqil auditoriya ishlarini umumiy tushunchasi hisoblanadi. Amaliy va mashg'ulotlarda mashqlar ishlash, laboratoriya ishlarini o'tkazishi, har xil ilmiy tajribalarni o'tkazish kabilar amalga oshiriladi.

Amaliy mashg'ulotga quyidagi asosiy va muhim talablar qo'yiladi.

1. Har qaysi mashg'ulotdan ko'zlagan maqsad topshiriqning mazmuniga mos bo'lishi kerak.

2. Amaliy mashg'ulotni zaminida nazariya bilan amaliyotning birligi didaktik tamoyili yotishi lozim.

3. Amaliy mashg'ulotga yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv metodlardan foydalanish zarur.

4. Dars paytida o'quvchilar imoni boricha mustaqil ishlashlari kerak.

5. Amaliy mashg'ulotda har bir o'quvchi yetarli darajada bilim, o'quv va malakaga ega bo'lishi kerak.

6. O'quvchi amaliy mashg'ulotni yangi tartibda yondashuv tamoyili asosida o'tkazmog'i kerak.

7. Har bir amaliy mashg'ulot vatanparvarlik ruhida o'tkazilishi kerak.

8. Amaliy mashg'ulotlar o'quvchini puxta tayyorgarlik ko'rishini talab qiladi.

9. Darsda o'quvchilarga faollik va ishga nisbatan ongli munosabat hosil qilmog'i lozim.

10. O'quvchilar amaliy mashg'ulotga faol ishtirok etishlari lozim.

5.2. Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari, foydasi va rentabellegi mavzusida amaliy ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Talabalar soni 30-50 dona	Dars vaqti-2 soat
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotning rejasi	1. Foyda va uning shakllanish manbalari 2. Foydani taqsimlash tartibi va yo'llari 3. Rentabellikning iqtisodiy mazmuni va ko'rsatgichlari 4. Foyda va rentabellikka ta'sir qiluvchi omillar
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari, foydasi va rentabelligi bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamalash
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
-mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; - mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'rganish va mustahkamlashga yordam beradi; - kichik guruhlarda ishlashni tashkil qiladi; - o'z nuqtai nazariga ega bo'lishini shakllantiradi; - mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.	- foyda va uni shakllantirish manbalari to'g'risida tushuncha beradi; - foydani taqsimlash tartibi va ko'payish yo'llarini o'rganadi; - rentabellikning iqtisodiy mazmuni va ko'rsatgichlari to'g'risida tushuncha beradi; - foyda va rentabellikka ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi.
O'qitish usullari va texnika	Amaliy mashg'ulot FSMU texnologiyasi kichik guruhlarda ishlash usuli.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanma kompyuter texnologiyasi eksport varaqlari, grafiklardan foydalanish;
O'qitish shakllari	Gruhlarda ishlash usuli
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, guruhlarda ishlash uslini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya
Monitoring va baholash	Nazorat savollari

**5.3. Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari, foydasi va rentabelligi ,avzusida
amaliy darsning texnologik xaritasi.**

Ish bosqichlari	O'quvchi faoliyatining mazmuni	Talaba faoliyatining mazmuni
1-bosqich Kirish (15 min)	1.1. Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va rentabelligini aniqlash maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi 1.2. Amaliy mashg'ulotda kichik guruhlarda ishlash tartibini talabalarga tanishtiradi 1.3. Mavzu bo'yicha guruhlariga topshiriqlar tarqatiladi 1.4. Savollar berib talabalarining bilimlarini faollashtirish	Eshitishadi va yozib olishadi
2-bosqich Asosiy (55 min)	2.1. Mashg'ulotning asosiy vazifalarini yechish uchun talabalar guruhlariga korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari foyda va rentabellikni aniqlash bo'yicha har xil fikrlarni ko'rib chiqish va har bir kichik guruh taqdimot qilishni topshiradi 2.2. Bajarilgan ishlarga talabalar baho beradilar 2.3. Mavzu bo'yicha muhokama va tahlil qilinadi. Talabalar baholanadi. 2.4. Talabalarga uyga vazifa sifatida mavzu bo'yicha nazorat savollari berishi	Talabalar to'rt guruhga bo'linib ishlaydilar. Guruh boshliqlari ularni taqdimot qiladi. Spekerlar 10-15 minut davomida jadval ma'lumotlari asosida o'z javoblari yozib chiqadi va doskaga prezentatsiya qiladi
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. O'tilgan mashg'ultga muommoli savollar javoblarga yakun yasash 3.2. Kichik guruhlarda ishlash ko'proq qayerda qo'llanishini aytish maqsadga muvofiqdir	Eshitadi va yozib oladi

5.4. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi asosida amaliy mashg’ulot o’tkazish metodikasi.

Mavzu: Koroxnaning ishlab chiqairsh xarajatlari foyda va rentabellik.

Dars turi:	Amaliy mashg’ulot
Dars uchun ajratilgan vaqt:	80-daqiqa
Dars o’tish jopyi:	Amaliy mashg’ulot o’tkazishda kichik guruhlarda ishlash mumkin bo’lgan xona
Topshiriq ta’rifi:	Maxsus soha bo’yicha o’quv maqsadlarini aniqlash
Maqsad:	Tinglovchilarda o’quv maqsadini belgilash bo’yicha ko’nikmalarni takomillashtirish
Ta’lim vositalari:	Tarqatma materiallar flip chart qog’ozi, markerlar.

Korxona faoliyatiga ob’ektiv baho berishda, takror ishlab chiqarish jarayonlarining ayrim bosqichlarida xarajatlarni va natijalarini qiyoslashda ma’lum bir iqtisodiy ko’rsatkichlardan foydalanish zarur bo’ladi. Ular qatoriga rentabellik ko’rsatkichi ham kiradi.

Rentabellik-korxonalar tijorat hisobi faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko’rsatkichlaridan biridir. Foydalilik ishlab chiqarish faoliyatining ma’lum muddati (yil, chorak) davomida serdaromadlik xususiyatini anglatadi. U xo’jalik faoliyatining

pirovard natijalarni to'g'ri baholashga va korxonadagi mavjud resurslardan samarali foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yo'lga qo'yishga imkon beradi.

Ishlab chiqarishning intensiv va samarali rivojlanayotganligiga baho berishda rentabellikning bir qator ko'rsatkichning absolyut miqdori ma'lum bir bazalar bilan taqqoslanadi. Amaliyotda tadbirlar va investorni qiziqtiradigan rentabellikning quyidagi ko'rsatkichlari hisoblanadi:

- xo'jalik faoliyatini yuritishga solingan aktivlar rentabelligi;
- mahsulotni sotish rentabelligi;
- o'z kapitali (mablag'i) rentabelligi;
- xarajatlar rentabelligi;
- bir dona aksiya rentabelligi;

korxona faoliyatini yuritishga solingan aktivlar rentabelligi (A_{rent})- u sof foydaning qo'yilgan barcha mablag'lar, ya'ni aktivlarning bir so'miga to'g'ri keladigan ulushidir. U sof foydaning (SF) umumiy aktiv (A) ning o'rtacha yillik so'mmasiga nisbati ko'rinishida aniqlanadi:

$$A_{rent} = \frac{SF}{A}$$

Mahsulotni sotish rentabelligi (S_{rent})-bu sotilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan foyda ulushini, ya'ni sotilgan mahsulotning samardorlik darajasini tavsiflaydi. U yalpi foyda samarasining (YaF) mahsulot sotishdan tushgan sof pul tushimiga (ST) nisbati ko'rinishida hisoblanadi:

$$S_{rent} = \frac{YaF}{ST}$$

Korxonaning o'z kapitali rentabelligi ($O'K_{rent}$)-bu sof foydadaning korxona va o'z kapitali (mablag'i) bir so'miga to'g'ri keladigan ulushidir. U sof foydaning (SF) korxonani o'z kapitalining o'rtacha yillik so'mmasiga nisbati ko'rinishida ifodalanadi:

$$O'K_{rent} = \frac{SF}{O'K}$$

Hozirgi paytda foydaga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini bir qancha usullarni qo'llab aniqlash mumkin.

Sotishdan olingan sof tushumni korxonaning yalpi foydasi deb ham atash mumkin. Bu, odatda, sotilgan mahsulotning umumiy qiymatidan uning tannarxini ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Ammo shu ikki ko'rsatgich zahirida mahsulotning qiymati, miqdori, baho o'zgarishi, tannarxdagi tebrinishlar mujassam etilgan. Shu tufayli yalpi foydaning vujudga kelishida bevosita shu omillar ta'sirini hisobga olishi maqsadga muvofiqdir.

Topshiriqni bajarish texnologik jarayoni.

“Kichik guruhlarda ishlash metodidan” foydalaniladi. Tinglovchilar kichik guruhlarda ajratilib har bir kichik guruhga topshiriq beriladi. Topshiriqni bajarish uchun ma'lum vaqt ajratiladi. Kichik guruhlar belgilangan vaqt oralig'idagi biror mavzu bo'yicha o'quv materiallarini aniqlaydilar va flipchart qog'oziga yozadilar. Belgilangan vaqt tugagandan so'ng, flipchart qog'ozlari yig'ib olinadi va har bir guruh besh daqiqadan bajargan ishlarini taqdimot qiladi. Barcha taqdimotlardan so'ng, kichik guruhlar bajargan ishlar bo'yicha muhokama boshlanadi. Muhokamada yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'rsatiladi va tuzatiladi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillika erishgach, ta'lim davlat siyosatida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Bu esa "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning yaratilishiga asos bo'ldi.

Ta'lim beruvchilar oldiga qo'yilgan ma'suliyatli va murakkab vazifa "Kadrlar Tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish uchun ta'lim jarayoniga ayniqsa kasb ta'limiga jahon andozalariga mos keladigan kadrlarni tayyorlash masalalariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi sharoitida korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining vaqti-vaqt bilan monitoringni o'tkazish va tahlil qilish hamda buning natijasida moliyaviy xulosa chiqarish, ularning bozor va davlat tomonidan tartibga solishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Korxonaning moliyaviy iqtisodiy holatini aniqlash, uning istiqbolli ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini turlarining muhimligi yoki istiqboli yo'qligini aniqlaydi, ishlab chiqarishda erishilgan moliyaviy natijalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari va munozaralarni olib boradi. Korxona faoliyatini tahlil qilib quyidagi xulosalarga ega bo'ldik:

1. Korxona mahsulot ishlab chiqarish hajmida sezilarli darajada o'sish yoki kamayish kuzatilmaydi.
2. Mahsulot sotish korxonada shartnoma asosidagi yo'lga qo'yilgan bo'lib, yetishtirilgan mahsulotning asosiy qismini chetga eksport qiladi.
3. Ishlab chiqarishning amaldagi hajmi bilan eng kam hajmi orasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, uni "Moliyaviy mustahkamlik zahirasi" ham, tegishli ravishda korxonaning moliyaviy barqarorligi shunchalik yuqori bo'ladi.
4. Korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini o'sib borishi natijasida foyda miqdorini namoyishiga olib kelgan bu esa rentabellikni kamayib ketishiga sabab bo'lgan.
5. Korxonada rejali tarzda moliyaviy nazoratni amalga oshirish tashkil etilmagan bo'lib, moliyaviy nazoratni amalga oshirishda korxona ma'muriyati maxsus bo'linma tashkil etish zarur.

Shu bilan birga “Korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish” mavzusi yuzasidan kasb-hunar kollejlari ta’limining interaktiv asosida dars o’tishi metodikasi ishlab chiqilgan. O’qitish metodikasini ishlab chiqishda “Bahs-munozara” metodidan foydalanish yaxshi natija beradi. “Bahs=munozara” o’rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo’ladilar.

Kasb ta’limi jarayonida yuqori samaradorlikka erishish maqsadida quyidagi takliflarni beraman:

- Kasb-hunar kollejlari o’quv auditoriyalarini ta’limning texnik vositalari bilan jihozlash to’g’ri;
- Kollejdagi mavjud texnika va texnologiyalarning ishlata oladigan, ulardan pedagogik faoliyatida unumli foydalanishga qodir kadrlarni tayyorlashni yo’lga qo’yish maqsadga molik;
- Kasb-hunar kollejlari ta’limning sifat va samaradorligini oshirish uchun zamonaviy dars ishlanmalarini yaratish, interaktiv metodlardan foydalanish to’g’ri;
- Rivojlangan mamlakatlar oily o’quv yurtlari bilan hamkorlik shartnomalarini o’tkazish, tuzish va ulardan olg’or pedagogic texnologiyalarini, fan va texnikadagi yutuqlarni kollej ta’lim tizimiga joriy etish maqsadga muvofiq va istiqbollidir.

Ushbu yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, istiqbolda korxonada ishlab chiqarish samaradorligi va barqarorligini ta’minlash uchun quyidagi takliflarni amalga qo’llash o’zining ijobiy natijasini beradi:

1. Korxonada mavjud ishlab chiqarish resurslarining ishchanlik faoliyatini oshirish va yaroqsiz texnika-texnologiyalarni korxona balansidan chiqarish zarur.
2. Ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi mehnatni me’yorlash, mehnatga haq to’lash tuzilmalarini takomillashtirish personalni tanlash va uning malakasida uning oshirish uslublarini o’zlashtirish;
3. Korxonaning ishlab chiqarish sohasida intensive omillardan keng kengaytirish muommolarini o’rganish, texnologiyalarni to’g’ri tanlash va uzluksiz ishlab chiqarish jarayonini ta’minlash.

4. Xarajatlar tejamkorligiga erishish ya'ni mahsulot tannarxini pasaytirish bilan bir-birlik mahsulot sotishdan olinadigan foydani oshirish

5. Moliyaviy boshqaruvning uslublari yordamida korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilish va maliy tavsiyalar ishlab chiqish;

6. Moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitida bozorni saqlab qolish strategiyasini ishlab chiqish va boshqarish;

7. Korxonada boqimandalikka barham berish ya'ni kreditorlik qarzlaridan qutilish yo'llarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-Toshkent O'zbekiston 1999-yil 16-b.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni 1997 yil
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Toshkent 1997-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlar. Toshkent, O'zbekiston. 1992-yil.
5. O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi,-Toshkent. Adolat. 1999-yil.
6. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Xo'jalik va huquq. Toshkent. 1999-yil.
7. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonuni. Xalq so'zi 7-yanvar 2012-yil.
8. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investorlar faoliyatlari kafolatlari" to'g'risida 1994-yil.
9. "Ekspert mahsulot ishlab chiqaruvchi" korxonalarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 20.03.1996-yil.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantirish" borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida 1998-yil.
11. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining farmoni "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1998-yil.
12. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent 2001-yil.
13. Karimo I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. Toshkent 1993-yil.
14. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyotni yo'li. Toshkent "O'zbekiston" 1992-yil 78-bet.
15. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent "O'zbekiston" 1992-yil.

16. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy siyosatini ustuvor yo'nalishlari". Toshkent "O'zbekiston" 1994-yil.
17. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari" Toshkent O'zbekiston 1998-yil
18. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" Toshkent O'zbekiston 2009-yil
19. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2011-yilda asosiy yakunlari hamda 2012-yilga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi 2012-yil 20-yanvar.
20. Karimov I.A. Mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent "O'zbekiston" 2011-yil 20-yanvar.
21. Ortiqov A. "sanoat iqtisodiyoti" Toshkent O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti 2004-yil
22. G'ozibekov D. G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari- Toshkent. Moliya. 2003-yil.
23. Bekmurodov A. Sh, G'ofurov U.B. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: Natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma- Toshkent TDUU. 2008-yil
24. Abdurahmonov, Xolmurodov Sh. R. Mehnat iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent 2004-yil.
25. Ortiqov A, Qoraboyeva T. Sh. "sanoat iqtisodiyoti" fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi", "Iqtisodiyot ta'limida o'qitish texnologiyasi"- TTDIU. 2007-yil.
26. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Toshkent "Istiqlol" 2004-yil.
27. Xo'jayev N, Hasanboyev J. Iqtisodiy pedagogika Toshkent 2002-yil
28. M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar 2000-yil
29. Rashidov X va boshqalar "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma) Toshkent 2007-yil.
30. Abduquddusov O. A, Rashidov x. f. "Kasb-hunar pedagogikasi" Toshkent-2009-yil.

31. A. Xo'jaboyev, I. Husanov "Kasbiy ta'lim metodikasi" Toshkent 2002-yil
32. N, Saidahmedov "Yangi pedagogik texnologiyalar" 2003-yil
33. Firmani 2010-2011-yillardagi hisobotlari
34. WWW. Ise. Tip. Net
35. WWW. Shool. Edu.ru.
36. WWW. Ppsy. Ru.
37. WWW. WWipss. Ry
38. WWW. Ppf. Uni. Vdm. Ru
39. WWW. Talent. Srrrb.ru.G va Idd. ntml
40. WW. Inter-pedagogika. Ru.
41. <http://WWW.usda> prospams
42. <http://WWW.iuf.ru/>.

Mundarija.

I. Kirish	4
1. Fan va mavzuning tavsifi	7
1.1. "Korxona iqtisodiyoti" fanining kasb-hunar kollejlarda tutgan o'rnini va vazifalari.....	7
1.2. "Korxona iqtisodiyoti" fanining maqsadi fanlararo bog'lanishi mavzuning dolzarbligi va uning o'qish jarayonidagi amalga oshirish yo'llari	8
1.3. Kasb-hunar kollejlarining maqsad va vazifalari	9
II. O'qitish metodikasining umumiy masalalari.....	11
2.1. Dedaktikaning mohiyati va asosiy tamoyillari	11
2.2. Ta'lim berish jarayonining mazmuni.....	15
2.3. Darsning tashkiliy shakllantirilishini tanlash va asoslash. Dars uning turlari va tuzilishi.....	17
2.4. O'quv jarayonining o'quv me'yoriy hujjalari.	
Darsning metodik ta'minoti.	20
2.5. Ta'lim metodlari O'qitish metodlarini tanlash va asoslash.	22
2.6. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat	25
2.7. O'qitish texnik vositalaridan foydalanish. Ko'rgazmali qurollar	28
2.8. An'anaviy o'qitish metodlari	30
2.9. Kasb – hunar ta'limida inovatsion texnologiyalar	32
2.10. Programmashtirilgan ta'lim	34
2.11. Bahs – munozara metodi	36
2.12. Internet yangiliklari	37
3.1. Korxona iqtisodiy salohiyatining ishlab chiqarish barqarorligiga ta'siri	40
3.2. Qarshi shahar "Davlat Ochilov" xususiy savdo faoliyatining iqtisodiy tahlili....	46
3.3. Korxona rejasini bo'limlari va ko'rsatgichlari	55
3.4. Korxonani zarar ko'rmay barqaror faoliyat yuritishni ta'minlash usullarini ishlab chiqish.....	65
4. Nazariy dars o'tish metodikasi.....	73
4.1. Kasb hunar kollejlarda nazariy ta'lim berishning asoslari.....	73

4.2. Yillik taqvim mavzular rejasidan na'muna.....	74
4.3. "Korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusida nazariy ta'lim berish texnologiyasining modeli	75
4.4. "Korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish" yo'llari	77
5. Amaliy mashg'ulotga o'tkazish metodlari	85
5.1. Amaliy mashg'ulotga nisbatan qo'yiladigan talablar	85
5.2. Korxonaning ishlab chiqarish harajatlari, foydasi va rentabelligi mavzusida amaliy ta'lim berish texnologiyasining modeli	86
5.3. Korxonaning ishlab chiqarish harajatlari, foydasi va rentabelligi mavzusida amaliy darsning texnologik xaritasi	87
5.4. "Kichik guruhlarda ishlash" metodi asosida amaliy mashg'ulot o'tkazish metodikasi	88
6. Xulosa va takliflar	91
7. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	94

